



JADIDLAR



MAHMUDXO'JA
Behbudiy

YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



Jadidlar

**MAHMUD XO'JA
BEHBUDIY**

YOSHLAR NASHRIYOT UYI
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(50')

A 14

Abdirashidov, Zaynobidin

Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola./Z.Abdirashidov. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — 156 b.

Logiha rahbari:

Alisher Sa'dullayev

Nashrga tayyorlovchi:

Zaynobidin Abdirashidov,
filologiya fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir:

Bahodir Karimov,
filologiya fanlari doktori, professor

Ijodiy guruh: **Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, o'lka jadidlarining yetakchisidir. U pedagogika, jurnalistika, matbaachilik, noshirlik, siyosat, tijorat va boshqa qator ishlar bilan shug'ullangan. Bundan tashqari, Behbudiy yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojiga ham o'z hissasini qo'shdi. Ushbu risolada ma'rifatparvarning hayot yo'li, faoliyati, jadidchilik harakatining yirik vakillari bilan munosabati, ijodidan ayrim asarlari tahlilga tortilgan.

Risola keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

© Z.Abdirashidov,

ISBN 978-9943-6682-2-5

©Yoshlar nashriyot uyi, 2022



Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.

Shavkat Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



JADIDLAR IZIDAN

(so'zboshi o'rnida)

Aziz yoshlar!

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadid bobolarimizning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etishi, bu bebaho boylikni faol targ'ib etish xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bugungi tinch va erkin hayot qadrini anglab yetishida muhim o'rin egallashi bir necha bor ta'kidlangan.

Darhaqiqat, xalqimizni mamlakat ravnaqi yo'lida birlashtirish, qalblarni uyg'otish, dunyo xaritasida har tomonlama rivoj topgan "Yangi O'zbekiston"ni barpo etishni ko'zlagan Uchinchi Renessans g'oyasining ildizi aslida ma'rifatparvar jadidlar faoliyatiga borib taqaladi.

Ular butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan

olib chiqish, millatimizni g'afolat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Xalqimiz biz yoshlarga kelajak bunyodkorlari sifatida qarar ekan, bu yo'lda bizga buyuk tariximiz — murabbiy, ajdodlarimizning ibratli hayoti, faoliyati va ma'naviy merosi — dasturilamaldir.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan taqdim etilayotgan **Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Is'hoqxon to'ra Ibrat, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, G'ulom Zafariy** kabi jadid ma'rifatparvarlar haqidagi ushbu kitoblar biz yoshlarga o'zligimizni anglashni, oldimizga aniq maqsadlar qo'yishni, Vatanni sevish, Vatan uchun kurashish, Vatan uchun yashash, Vatan bilan baxtli bo'lishni o'rgatadi.

A. Sa'dullayev,
*O'zbekiston Respublikasi Yoshlar
 ishlari agentligi direktori, senator*

HAYOT YO'LI

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudiy tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-1923-yillarda o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (1922), "Zarafshon" (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida XX asrning 70-yillaridan bugungi

kungacha e'lon qilingan ko'pgina tadqiqotda Hoji Muin ma'lumotlari asos qilib olinadi.

Hoji Muin Behbudiyning biografiyasini yozar ekan, uni **1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelganligini** ta'kidlaydi. Ammo oxirgi olib borilgan tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, Behbudiy tug'ilgan sana va joyi biroz boshqacharoq ko'rsatilmoqda. Taniqli olim Sirojiddin Ahmedovning ta'kidlashicha, **Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan.** Olim bu sanani isbot qilish uchun yetarlicha dalil va isbotlarni keltiradi.

Hoji Muinning ma'lumot berishicha, Mahmudxo'ja Behbudiyning **otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan,** ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib,



amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko'chib kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib savod chiqaradi, otasi Behbudxo'jadan esa Qur'ondan saboq olib, qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. 15 yoshga kirganda yana bir tog'asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsilini davom ettiradi va arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo'yicha bilimlarini kengaytiradi.

1893-yili onasi, 1894-yili esa otasi vafot etadi. Otasi vafotidan biroz avval uylangan **Behbudiy to'rt o'g'il, bir qiz ko'rgan.**

Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ma'lumotlar nihoyatda kam. Sirojiddin Ahmedov bergan ma'lumotga ko'ra, **Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan.** Behbudiy Buxoro madrasalarida tahsil olar ekan, u yerdagi mullalar bilan

kelisha olmaganı bois Samarqandga qaytib kelgan. Bu fakt haqiqatga yaqin, sababi, Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yili "Turkestanskiye vedomosti" gazetasining muxbiri Grigoriy Andreyev bilan suhbatda Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgani haqida so'zlaydi va bu madrasalardagi mulla, qozi va imomlarning johilligidan shikoyat qiladi.

18 yoshiga yetganida Behbudiy madrasa ta'limini tugatadi va Samarqand viloyati Chashmaob (Chashmai ob) volostida qozilik qilgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida **mirzalik lavozimida ishlay boshlaydi.** Tog'asi huzurida ikki yillik faoliyat, tog'asi qozilikdan bo'shagandan keyin Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o'g'li qo'lidagi mirzalik ishini davom ettirishi uning dunyoqarashi va kelajak faoliyatida katta o'zgarish yasaydi. **U shariat qonunlarini puxta o'zlashtiradi va mufti lavozimini egallaydi.** 1916-yilgacha muftilik faoliyati bilan munta-

zam shug'ullanadi. Bu orada qisqa vaqt qozi vazifasini ham bajargan, ammo ma'rifatparvarlik ishlariga berilish, xususan, matbaachilik bilan shug'ullanish katta mehnat va mablag' talab qilgani bois Behbudiy qozilikdan voz kechib, muftilikning yonida tijorat bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan. Zamon ahvoli, bo'lib turgan ijtimoiy va siyosiy voqealar, turli yangiliklarni kuzatadi.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. *"1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullog'a Kavkaz yo'li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi"*, — yozadi Behbudiy bu safar haqida. Bu sayohat, dunyo ko'rish, kezish izsiz ketmadi. Sayohat Behbudiyning dunyoqarashini, keyingi faoliya-

tini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu sayohat uning hayot yo'lida, kelajakda bo'ladigan hodisalar, yangiliklarni boshlab berdi. Behbudiy Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, "jaholat uyi" ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini tamomila o'zgartirib yubordi. Adib Xolidning ta'kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan. Oradan 8 oy vaqt o'tib, u Samarqandga qaytishi bilan "Tarjumon" gazetasiga obuna bo'ldi.

U ham jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan **1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida**

yangi maktablar tashkil qilindi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «**Risolayi asbobi savod**» (1904), «**Risolayi jug'rofiyayi umroniy**» (1905), «**Risolayi jug'rofiyayi Rusiy**» (1905), «**Kitobatul atfol**» (1908), «**Amaliyoti islom**» (1908), «**Tarixi islom**» (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy ushbu syezdda turkistonlik vakillarning boshlig'i sifatida qatnashdi va Turkistondagi vaziyat va musulmonlar ahvoli borasida katta nutq so'zlaydi.

25 kunga cho'zilgan bu safar haqida Behbudiy so'ngroq shunday ma'lumot bergan

edi: "1325 sanayi hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yorminkasinda milliy ishlar to'g'risinda mashvarat qila turgan majlisg'a musharraf bo'lmoq uchun O'runburg yo'li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasila Nijniy Novgo'rud borib edim".

Behbudiy 1913-yili "Samarqand" gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat oldi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtadi. **1913-yil 20-avgustdan u "Oyina" jurnalini chiqara boshladi.** Haftalik, suratli bu jurnal, asosan, o'zbekcha bo'lib, she'r, turli yo'nalish va mavzudagi maqola, tahliliy materiallardan tashqari e'lonlar ham berib borgan. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi.

"Oyina" jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga,

dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqola bilan chiqib, o'zbek, tojik, arab, rus va fransuz tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi ("Har millat o'z tili ila faxr etar", 1914, 35-son), o'zaro munosabatlari ("Til masalasi", 1915, 11-, 12-sonlar) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Uning xususiyatlarini belgilashga urindi. Boshqa adabiy janrlar bilan tenghuquqligi masalasini ko'tardi ("Tanqid saralamoqdir", 1914, 27-son). Millat sha'ni oyoqosti qiluvchi fikr-qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o'z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi ("Sart so'zi majhuldur". 1915, 22-, 23-, 25-, 26-sonlar).

1914-yilning 29-mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlariga sayohatga o'tlanadi.

Muallif sayohati arafasidagi kayfiyatni shunday ifodalaydi: "7 sanadan beri ikki dafa Buxoro va bir dafa Farg'onani ziyoratidan boshqa safarga chiqqanim yo'q edi. Azbaski, tiriklik kasalig'a muhtalolik, ro'zg'or qaydig'a giriftorlik sayohat ne'matidan mahrum etar. Yetti yillik xonanishinlik, digar tarafdan aloyiqi ro'zg'or, tijorat va 7-8 risolalar tahrir va nashri, dorulqazo ishlari, xususan, bir sanadan beri sobiq "Samarqand" jaridasi va hozirgi "Oyina" idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. A'zou havoslarg'a kasolat paydo bo'ldi. Singir (asab) g'ayri muntazam ishlaydur. Atibbo istirohat va sayohatg'a mashvarat berarlar. Tabiat u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat yetar, istamaz".

Behbudiy sog'ligi bilan bo'lgan muammolarga qaramay sayohatga chiqish qaroriga keldi. Bu sayohat uning uchun bu davrda noshirlik va gazetachilik ishlaridan biroz chalg'ish va, eng asosiysi, dunyo ishlari, bo'layotgan voqea-

hodisalarni yaqindan ta'qib etish istagi kuchli edi. Ikkinchidan, "Behbudiya kutubxonasi" uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlardan ularning tarixi, geografiyasi, aholisi, olimlari va boshqa foydali ma'lumotlar, kitoblar kerak edi.

Behbudiy o'z sayohati yo'lini quyidagicha belgilaydi: Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bayrut, Misr Qohirasi va yana orqaga — Istanbulga qaytib, temir yo'l bilan Bolgariya, Avstriya va Berlin orqali Rossiyaga, undan Turkistonga qaytib kelish. Sayohat muddati ham qisqa edi, chunki Behbudiy Peterburgda bo'ladigan Milliy majlis maslahatiga taklif qilingan edi. Ammo Behbudiy bu majlisda qatnasha olmadi va kun tartibidagi savollarga javobini yozib yuboradi. Bu sayohat 1914-yilning 29-may kunida boshlandi. Poyezdga o'tirib Bayramali orqali Ashxobodga o'tadi. Krasnovodskdan paroxod bilan Bokuga boradi. 2 iyunda Mineralniye Vodi, Kislo-

vodsk — Pyatigorsk, Jeleznovodsk — Rostov — Odessani kezib, 8 iyunda Istanbulga kirib keladi. Undan Edirnaga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21 iyunda suv yo‘li bilan Quddusga yo‘l oladi. Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarini tomosha qiladi. Sayohat iyulning boshlarida ham davom etadi.

Sayohat xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, Behbudiy ularni “Oyina” jurnalining 1914-yil sonlarida mazkur nom ostida ketma-ket berib boradi.

“Sayohat xotiralari”ning birinchi qismi jurnalning 14-iyun 34-sonidan chop etilgan. Muallif unga “31-may, Bahri Hazar, Mahmudxo‘ja” deb imzo chekadi. Bu “Sayohat xotiralari” ham ma‘rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim. Ular adabiyotimizdagi an‘anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidaga o‘ziga xos namunasidir. Muallif bu memuarlarda yo‘l taassurotlariga,

mashhur yoxud oddiy kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o'rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi, turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqlardagi dehqonchilikdan tortib, shaharlardagi eskalatorgacha uning e'tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasululloh poyqadami tekkan qutlug' dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur al-Masjidul Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavq-shavqqa to'ladi.

Muallif Ollohga nido qiladi: *"Iloho, u aziz va faol bandalaring hurmatig'a bizg'a basirat ber. Eshitar quloq, anglar aql ber. Ey Ollohi azimushsha'n. Bu magar sening g'azabingmidur?! Avf et biz insonlarni. Hidoyat et. Yer yuzinda sulh va silohi umumiy ato ayla. Insonlarg'a insoniyat ber. Zolimlarni qahr*

et, mahv bo'lsun zulm. Yashasun adolat va haqqoniyat, omin".

Taniqli nemis olimasi Ingeborg Baldauf mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasi munosabati bilan "Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda" nomida maqola nashr qilgan. Baldauf maqolasida Behbudiy kuzatishlarining o'ziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini o'rtaqan eng katta dard — erk va ma'rifat ekanligini aytgan. Darhaqiqat, "Xotiralar"dagi ma'rifiy ruh, iztirob to'la fikr-mulohazalar, muallifning tashna nigohi o'quvchini befarq qoldirmaydi. Xususan, Vatan tuyg'usi ifodasi uni bugun siz bilan bizga haddan tashqari yaqin qilib qo'yadi. U Quddusi sharifdagi Hazrati Dovud maqbarasini, Bibi Maryam va Hazrati Iso kalisolarini ziyorat qilar ekan, toshkentlik yosh bir attorga duch keladi. "*Do'konig'a bir oz o'lturdik, — yozadi Behbudiy, — mam-*

lakatdan so'radi. Qo'lig'a bir necha nusxa "Oyina" va "Turkiston xaritasi"ni berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'zig'a surtdi. ("Hubbul vatani minal iymon".) Xususan, vatan va ahli diyorni qadri musofiratga ma'lum bo'lur. Haqiqatan vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak".

Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili "Rusiya musulmonlari ittifoqi"ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917-yilning 16–23-aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o'lka qurultoyida hayajonli nutq so'zladi. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk

maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli "*mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar*" deb ochiq aytdi.

U haq edi. Mustamlakachilar "50 yil ilm-ma'rifatdan chetda saqlab kelgan"lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo'ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig'vo tinimsiz davom etar edi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir Fevral o'zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e'lon qiladigan bo'ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig'i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general gubernator, endilikda Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig'iga

ko'ra, Samarqand ijroiya qo'mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay'at yubordi. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e'loni oldindan mo'ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mul-lalar va jadidlar o'rtasida o'tib bo'lmas choh paydo bo'ladi. Miller buning aybini Beh-budiyga qo'yadi. Faqat Miller emas, Tosh-kentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ish-chi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o'lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan "o'z ixti-yorlari ilan" borgan deputatlarga to'nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezd-da minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda **"Buxoro voqealari va daf'i tuhmat"** ("Hurriyat" gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozgan edi. Shu

yil 26-noyabrda Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. Behbudiy shu qurultoyda o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylandi. **27-noyabrga o‘tar kechasi “Turkiston muxtoriyati” e‘lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo‘yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma‘naviy otasi, shubhasiz, Behbudiy edi.** *“27-noyabrda Qo‘qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e‘lon qilindi. Muborak va xayrli bo‘lsun! Kamina ham majlisda bo‘lushdan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!”* – deb yozgan edi Behbudiy.

Behbudiy bu qadim otalar yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarining birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiq-

di. Jadidlar qurgan ilk demokratik davlat — Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi. *"Bovurlar! — deb yozadi qozoq birodarlariga ochiq xatida, — bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunin, muxtoriyatda olinur, lekin berilmas. Ya'ni, muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar. Bul, albatta, shundaydur va bul so'zga hech kim ixtilof qilolmaydur... Endi ishlar shu holda ekan,*

biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va hamda mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg'a kelishiga sa'y va ehtimol etmog'imiz lozimdur...

Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe' bo'lub, yutilub, hatto tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdir. Turk tomurig'a bolta urmoqlikdir".

Muxtoriyat boy berildi. Uni otalarimiz saqlab qololmadilar. U bolsheviklar tomoni-

dan xoinona bostirildi. 19-20-fevral kunlari shahar to'pga tutildi. 10 mingta turkistonlik o'ldirildi, 180 ta qishloqqa o't qo'yildi.

Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar natija bermaydi.

Orzulari chil-chil bo'lgan **Behbudiy 1919-yilning bahorida — 25-martda Shahrizabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi.** Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O'nlab marsiyalar yoziladi. **Fitrat “Behbudiyning sag'anasini izladim” deb nomlangan she'r bitadi.**

Ayniy Behbudiyni eslab:

*Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu,
ko'rolmasmu?*

*Saning mislingni Turkiston topolurmu,
topolmasmu?* —

misralari bilan boshlanuvchi she'r yozadi.

Mashhur Cho'lpon ham Behbudiyning fojiali o'ldirilganiga bag'ishlab she'rlar yozdi.

Qarshi shahri 1926-37-yillarda 11 yil Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining abadiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926-yildayoq u mansub bo'lgan jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

Boris Pyaskovskiy 1922-yildagi "Inqilob" jurnali sahifalarida e'lon qilgan "O'zbek teat-

ri tarixi” maqolasida uning maydonga kelishi tarixi haqida fikr yuritar ekan, “*O‘zbek teat-
rining asosini qo‘yib beruvchi samarqandlik
Mahmudxo‘ja Behbudiydir*” deb yozadi, adib
nomida Toshkentda maorif klubi, Samarqand-
da kutubxona va dramtruppa, Turkistonning
deyarli hamma shaharlarida uning nomiga
ochilgan maktablar, Buxoroda esa markaziy
bosmaxona borligini ta’kidlaydi.

FAOLIYATI





Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat

uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsun. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyini ijtimoiy faoliyatini yanada kuchaytirishga undadi. Endi u adabiy, publitsistik, noshirlik, jurnalistik yo'nalishlarda ham keng qamrovli ishlarga qo'ldi.

Behbudiy va jadid maktabi. Mahmudxo‘ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma‘rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog‘ini kengaytirish, ular uchun o‘quv dastur va darsliklar yaratish, o‘quvchilarni o‘quv qurollari bilan ta‘minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug‘ullandi. 1904-1909-yillarda u o‘zbek va tojik tillarida **“Risolayi asbobi savod”**, **“Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy”** (Qisqacha umumiy geografiya), **“Kitobat ul-atfol”** (Bolalar maktublari), **“Muxtasar tarixi islom”** (Islomning qisqacha tarixi), **“Madxali jug‘rofiyayi umroniy”** (Aholi geografiyasiga kirish), **“Muxtasar jug‘rofiyayi Rusiy”** (Rossiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklarini yaratdi.

Savod alifbodan boshlanadi. Shuning uchun ham jadid pedagoglari **“usuli sav-tiya”** metodida faoliyat ko‘rsata boshlagan

maktablar uchun alifbo darsliklari yaratishga birinchi darajali masala sifatida qaradilar. Mahmudxo'ja Behbudiy ushbu usul zamini-da Turkiston o'lkasida birinchi bo'lib alifbo darsligini yaratdi va uni **“Risolayi asbobi savod”** deb nomladi, asar tojik tilida. Muallif alifboni bosmadan chiqarishdan oldin bir yil davomida Abduqodir Shakuriy maktabida tajribadan o'tkazdi, alifboga ba'zi bir o'zgartishlar kiritdi va 1905-yilda Samarqandda bosmadan chiqardi. Bu haqda Behbudiy asar muqaddimasida quyidagilarni yozadi: *“Janobi fazilatpanoh maktabdorlar, muallimlar, shogirdlar murabbiylari, Sizlarga murojaat va arz qilurman. Kaminaning “Asbobi savod” (“Savod qo'llanmasi”) nomli ushbu risolasi shogirdlarning qisqa muddatda o'qish va yozishni o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, bir necha bor sinovdan o'tkazilgandir. Faqirning yetti yasharli o'g'li Mas'udxo'ja*

ham shu qo'llanmada tez savodini chiqardi va takomillashtirdi. Samarqand viloyatining usuli jadid maktabi muallimi Abduqodir janoblari o'z maktablarida 3 oy davomida ushbu darslik-alifbo bilan dars berdilar va nihoyatda murakkab hisoblanmish usuli qadimdan afzalliklarini sinovdan o'tkazdilar. Janob muallim 3 oy davomida biz tavsiya qilgan oson o'qitish usuli bilan o'spirin va yigitlarni o'qish va yozishga o'rgatdi. Siz, aziz muallimlar, bizning "Asbobi savod" alifbo darsligimizdan ham foydalanishingizni so'raymiz. Oллоh sizlarga yor bo'lsin".

Ushbu alifbo jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatida bir necha bor nashr qilindi va ko'proq Buxoro, Samarqand maktablarida 1920-yillarga qadar qo'llanildi. Muallif asar oxirida yozuvga o'rgatish maqsadida husnixatdan namunalar beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning muhim darsliklaridan yana biri **“Kitobat ul-atfol”**dir. Kitobning nomlanishi haqida: ba‘zi tadqiqotchilar ushbu darslikning nomlanishini “Bolalar uchun kitob”, “Bolalar uchun yozuv kitobi”, “Bolalar kitobi” kabi shakllarda tarjima qiladilar. Bunday nomlash muallif maqsadiga ham, kitobning mazmun-mohiyatiga ham to‘g‘ri kelmaydi, chunki “kitobat” so‘zi lug‘atlarda “xat”, “maktub”, “bitik” deb tarjima qilingan. Ushbu “Kitobatul atfol” darsligini “Bolalar maktublari” deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki kitobda bolalarni turli mazmundagi rasmiy, norasmiy, xususiy xatlar yozishga o‘rgatish, yozma nutqini o‘stirish masalalari atroflicha tahlil qilingan, bolalarning turli mazmun va maqsadda yozilgan maktublaridan chiroyli namunalar berilgan. Darslik muqaddimasida Turkistonning usuli qadim maktablarida o‘quvchilar yozma nutqini o‘sti-

rish masalasi nihoyatda nochor ahvolda ekanligi, bolalarni insho yozishga o'rgatish uchun birorta qo'llanmaning yo'qligi mazkur asarni yozishga majbur qilganligini ta'kidlaydi. Ushbu darslik, birinchidan, yoshlarni turli davlat idoralarida o'zbek tilida ish yuritishga o'rgatish vazifasini o'z oldiga qo'ygan bo'lsa, ikkinchidan, muallimlarning e'tiborini o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishdek nihoyatda muhim masalaga qaratadi: "...shogirdlar ibtidoiy maktabg'a kirib, qalam yurgizgonidan so'ng har nav maktub ta'lim olmoq ila batadrij usuli tahrir va kitobati zamoniya va mahalliy ham adabiyoti milliy ta'hsilina boshlab, bora-bora ta'hsillarini oxirig'acha mahorat hosil etadurlar. Biz ham shul qoidag'a binonan majmuaning kitobat va insho unvonida avlodi vatan uchun rasmiy va xususiy hamda Turkistonning shar'iy va milliy mahkamalarina ma'mul (amaldagi) barcha vasoyiq (va-

siqalar) *hujjat-u biljumla musulmon valasno'yi upraviteli (tuman boshlig'i) huzurinda bo'laturgon doznaniya, protokol, qabohatnoma va rasmiy har nav maktublarni muhtaviy bir necha juzdan murakkab bir asar nashr etmoq amalinda eduk. Shu maqsadg'a ushbu "Kitobat ul-atfol"ni nashr ila shuru' etdim... Muallim afandilar maktab bolalarig'a mundagi maktublardan oz-oz bo'lub, har kalima va jumla ma'nosini bildirub, sabog' va ta'lim bermoqlari va imtihon olmoqlari marju'dur".*

Hozirda ham o'rta maktablarda ona tili va adabiyot o'qitishning maqsad va vazifalaridan biri va asosiysi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdir. Bu birinchi sinfdan o'rta maktabni bitirib ketgungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oluvchi, soddadan murakkabga rivojlanib boruvchi uzluksiz, murakkab jarayondir. O'rta maktabni bitirib chiqqan yoshlar, qaysi sohada o'qishni davom ettirishi

yoki qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar, o'z fikrini tugal, mantiqli, chiroyli tarzda uslubiy va imloviy kamchiliklarsiz yozma ravishda bayon qila olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Bunga esa o'rta maktablarda o'qituvchi rahbarligida muntazam, rejali uyushtiriladigan bayonlar, insholar va boshqa yozma ish turlari, ularning muhokamasi orqaligina erishiladi. Afsuski, keyingi yillarda o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari test orqali amalga oshirilishi munosabati bilan o'quvchilarning yozma nutqi nihoyatda pasayib ketdi, chunki o'rta maktablarda, hatto yangi faoliyat ko'rsatayotgan akademik litseylarda ham yozma ishlar — bayon, insho xo'jako'rsinga o'tkazilmoqda. Bu bilan oliy o'quv yurtlariga kirishda qo'llanayotgan test-sinov usullariga qarshi emasmiz, test imtihonlari yil sayin mukammallashib bormoqda. Kirish imtihonlarida yozma ishlar (insho)ni olib tashlash maktablarda yoz-

ma nutq o'stirish masalalariga e'tiborni pasaytirish mumkin degan so'z ham emas. Qolaversa, respublikamizdagi o'rta maktablarni bitirgan hamma yoshlar oliy o'quv yurtlariga kira olmaydilar va buni rejalashtirib ham bo'lmaydi. Ammo umum o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxs har bir masalada o'z fikr-mulohazalarini yozma ravishda talab darajasida bayon qila bilishi shart. Bu — madaniyatlik mezon.

Mahmudxo'ja Behbudiy yozma nutq o'stirishday nihoyatda murakkab va mas'uliyatli masalaga jiddiy yondashdi va darsligida o'quvchilar xat yoki maqola yozayotgan vaqtlarida nimalarga ahamiyat berishlari zarurligini 18 moddada ko'rsatib berdi. Mana, ularning ba'zilari:

“1) Turkiy yozilur ekan va iboratni turkiysi bo'lub turub, ani o'rnig'a rusiy va ajnabiy ismni yozmoqni ahli donish man' qilgandurlar.

2) Ahli fan, ulamo va udabog'a maxsus

yoziqatg'on xatlar, mahkama va dorulqazo maktublari, ilmiy va siyosiy maqolalar yaxshi va adabiy suratg'a yozilsa kerak. Munday maktublarda arabiy, forsiy xatg'a rusiy va fransaviy ba'zi bir ism va lug'atni yozmasa iloj yo'qdur. Bovujud shul baqadri imkon o'shal so'zlarni turkiy yo forsiychasini topib va topilmaganda jumla ila tafsir qilmoq lozimdur.

3) Xatni kamso'z, serma'no yozmoq kerakdur.

4) G'azab va xafalik va yo nihoyat xursand va bexushlik vaqtlarda xat yozmay, holoti daraji e'tidol (mo'tadil)g'a kelganda maktub yozmoq avlodur.

5) Bir nimarsa va yo odamni nihoyat madh va ta'rif va yo yomonlamoq va mubolag'a etmoqdan hazar qilib, barcha holda o'rta qismg'a qalam ishlatmoq kerak.

6) Maktubg'a haqorat, ta'na, hazil, fisq va gunohg'a taalluq so'zlar aslo yozilmasun".

Yuqoridagi Behbudiy tomonidan ko'rsatib o'tilgan talablar hozirda ham muhim ahamiyatga ega.

Bolalar ruhiyatini yaxshi bilgan Behbudiy yozma nutq o'stirishda o'quvchilar uchun nihoyatda qulay va ularni qiziqтира oladigan usul — xat yozdirish usulidan foydalanadi. Chunki, yosh bolalar ota-onalariga, do'stlariga xat yozishga ancha qiziqadilar. Darslik muallifi xat yozish odobi, qoidalari, ramzlar, his-tuyg'u belgilari (tinish belgilari) bo'yicha rahbarlik qilishda o'qituvchilarga qimmatli yo'riqlar beradi.

Ushbu o'quv darsligi o'lka miqyosida ta'lim-tarbiya muassasalari — eski va yangi maktablar uchun katta ahamiyat kasb etdi. Asar haqida "Turkiston viloyatining gazetisi" da "Novaya kniga pisem dlya detey" nomi bilan maxsus taqriz-maqola ham e'lon qilindi. Unda quyidagilarni o'qiymiz: "Bu yaqin kun-

da bizning idoramizg'a Samarqand shahrida barpo bo'lib, "usuli savtiya va jadida" tariqi bila ta'lim va ta'limi rivoj topib turmush maktabi ibtidoiyaning mutasaddilaridan hurmatli fozil muhtaram Mahmudxo'ja Eshon mufti janoblarining ehtimomlari bila "Majmuayi kitobat va inshodin bir necha juz'" ("Kitobat ul-atfol") nomli majmuachalaridan namuna barobarinda hadya yuborilmush ekan".

"Kitobat ul-atfol" usuli jadid maktablari shogirdlari uchun maxsus darslik sifatida yaratilgan bo'lib, birinchi nashri 1908-yilda. Ikkinchi nashri 1914-yilda bosmadan chiqdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy boshqa jadid mutafakkirlari kabi geografiya fanini o'qitish masalasiga alohida e'tibor bergan. Uning bu fanga oid **"Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy"** darsligining to'liq nomi "Kitobi muntaxabi jug'rofiyayi umumiy va namunayi jug'rofiya" (Umumiy jug'rofiyadan saylanma kitob) deb

nomlanadi va u 1906-yilda Samarqandda G.I.Demurov matbaasida bosmadan chiqqan. Muallif asar muqaddimasida ta’kidlaganidek, geografiya faniga oid “ijmol va tafsilot turkiy, arabiy, forsiy, rus lug‘atlarig‘a tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid kutub va risolayi jug‘rofiya, hay‘ati riyoziy, tarixiy, tabiiylardan mo‘tabar nusxa va har guna mazkur lug‘atlardagi gazit-jarida, atlas, xarita, istaticheski majmualardan jam‘ va tartib qilingandur”.

Demak, asar muallifi o‘ttizdan ortiq mavzuga oid zamonaviy va qadimiy asarlarni, manbalarni o‘rganib chiqqan. Dastlab “jug‘rofiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi, bu fanning “Jug‘rofiyayi tabiiy”, “Jug‘rofiyayi umroniy” (Aholi geografiyasi), “Jug‘rofiyayi ig‘tisodiy”, “Jug‘rofiyayi siyosiy”, “Jug‘rofiyayi riyoziy” kabi sohalari haqida ancha ilmiy asosli ma’lumotlar beradi. Keyin muallif geografiya fanining paydo bo‘lish tarixini, “kurrayi musattaha” —

globus, geografik xaritalarning yaratilish tarixi, geografiya ilmining muhim ahamiyati haqida batafsil to'xtaladi. Behbudiy darslikni yaratish jarayonida Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lom" hamda Ismoil Gasprinskiy nashrga tayyorlab chop qilgan "Turkiston ulamosi" asarlaridan ko'proq istifoda qilganligi ko'zga tashlanadi. Muallif geografiya ilmiga oid o'nlab asarlar yaratgan musulmon, xususan, turkistonlik olimlarning, ularning asarlarini nomma-nom tilga oladi, "Turkiston donishmandlari" nomli bob ajratadi. Shu bilan birga, bu ilmni rivojlantirishda Yevropa olimlarining xizmatlariga ham alohida e'tiborni qaratadi: *"Musulmon ulamolaridan so'ngra farangiylarni(ng) ahli donishi va Ovrupo olim va sayyohlari dengiz va quruqlikni(ng) har tarafig'a arablardan ziyoda himmat va g'ayrat ila yura boshlab, dunyomizni ibroniy, yunoniy, arabiy zamonlaridan ko'ra xeyli kattaligini bilib va dun-*

yo ahlig'a bildurdilar. Avvalgi zamonlarga oti eshitilmagan Amrika, Po'lineziya, Orazi Qutbiya va minglar ila jazira (orol)larni topib, hozirgi barcha mamlakat va jazira va dengizlarni(ng) masohati (o'lchovi) ila hamag'a bilinmoqig'a bois bo'ldilar. Sanayi 1450-milodiy — 854-hijriydan boshlab, bani odam ilmig'a dunyoimiz avvalgidan ko'ra kattaroq bo'lishig'a Ovrupo donishmandlari xizmat qilib va o'z davlat va mamlakatlari'ga ko'p naflar yetkurdilar”.

“Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy” darsligining alohida boblari “Jug'rofiya o'qumoq musulmonlarga lozimdur” hamda “Eski va yangi donishmandlar” deb nomlanadi. Ularda Yer va Osmon jismlari haqidagi tushunchalarning, xususan, Yerning yassiligi, sokinligi, uning ho'kiz shoxi ustida turishi kabi qarashlarning asossizligini ilmiy dalillar bilan ko'rsatib beradi: “Shul tariqa xilofi aql va naql so'zlik

hikoyat kitoblar bizlarni(ng) iste'molimizg'a borki, — deb yozadi muallif, — ilm va xabarlik odam zehn qo'ysa bo'ladur. Chunonchi, mutolaamizg'a yurgan ba'zi kitoblarg'a yozilganki, yer yalpoq, bir boshdin boshqa boshig'acha besh yuz yillik yo'l, atrofing'a Ko'hi Qof degan zabarjaddin devori muhiti bor. Yer ho'kiz shoxiga, ho'kiz baliqqa, baliq suvg'a, suv havog'a... Ammo hozirgi jug'rofiya ilmi tajriba va ro'iyati bashariyyadan bilinadurki, Yer kurraviy (yumaloq), ostig'a ho'kuz, baliq yo'q, atrofing'a devori yo'q va Yer aylanadur, havog'a muallaq turadur".

Darslik muallifi Strabon, Ptolomey kabi yunon olimlarining geografik faoliyatini chuqur tahlil qiladi, shu bilan birga, ularning geosentrik, ya'ni hamma osmon jismlari uning atrofida aylanadi degan qarashlari noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydi, aksincha, geliosentrik qarashlarini ilgari suradi. Behbudiy yozadi: "Istrabo'n,

Batlimus degan yunoniy olimlar jug'rofiya va hay'at ilmlari to'g'risida yaxshi kitoblar tasnif qilib, bu ilmlarni ko'p rivoj beribdur- lar. Alarni (ng) kitobi yunon tilig'a yozilg'on emish... Osmon to'qquzdur va Yerni atrofig'a aylanadur, degan kishi ushbular va nizomi mahdud egasidur".

Darslikning "Atrof. Jihoti. Xarita. Plan" bobida ufq, qiblanamo (kompas), xarita va plan haqida ma'lumot berilgan. Behbudiy to- monidan ajratilgan xaritalarning turlari hozirgi zamonaviy xaritalar turlariga ancha mos kela- di, ya'ni "xaritayi umumiy", "xaritayi xususiy", "xaritayi to'po'grafik" va boshqalar. Ma'lumki, xaritalar tuzishda masshtab muhim ahamiyat- ga ega. Darslik muallifi "masshtab" so'zining muqobili sifatida "o'lchak" so'zini juda to'g'ri qo'llaganki, hozir ham geografik atama sifati- da qo'llash ma'quldir. Hozirda qo'llanayotgan "miqyos" atamasi, geograflarning fikriga ko'ra,

“masshtab” tushunchasini to‘la ifodalay olmaydi.

Darslikning “din” va “odat”, “hukumat va hukmronlar” boblarida davlatlarni boshqarish tizimlari, din va aholi geografiyasi haqida hozirgi zamon geografiyasi uchun ham qimmatli ma’lumotlar berilgan. *“Dunyoga uch mingdan ziyod lison — til va bir mingdan ziyoda din, mazhab borki, — deb yozadi Behbudiy, har biri o‘zlarini haq va boshqani botil biladur. Aqllik hakim va alloma odamlarni(ng) tahqiq va iqrorig‘a qaraganda, dunyoda dini islomdan boshqa aql va hikmatg‘a muvofiq va mustaidi tamaddun bir din yo‘qdur. Oni uchun har mazhabdagi bu zamon allomalarini(ng) ba‘zisi musulmon bo‘ladurlarki, sharofati ilmdur...”*

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston o‘lkasida ochilayotgan usuli jadid maktablari uchun geografiya faniga oid “Kitobi muntaxabi

jug'rofiyayi umumiy va namunayi jug'rofiya" darsligidan tashqari yana "Madxali jug'rofiyayi umroniy" (Aholi geografiyasiga kirish), "Muxtasari jug'rofiyayi Rusiy" (Rossiyaning qisqacha geografiyasi") darsliklarini, ushbu darsliklarga ilova sifatida "Turkiston, Buxoro va Xiva xaritasi"ni bosmadan chiqardi. Behbudiyning ushbu asarlari bilan chuqurroq tanishar ekanmiz, zamondoshi geograf Olim hoji Yunusov (1842–1924) faoliyati bilan, u yaratgan va Samarqand ko'rgazmasida namoyish qilgan globus bilan tanishgan ko'rinadi.

Behbudiy darsligining muhim ma'rifiy va metodik jihatlari shundaki, muallif darslikni yaratishda Turkiston aholisining geografiya va unga aloqador fanlar bo'yicha bilim saviyasini e'tibordan soqit qilmagan. Darslikda ifodalangan geografik jarayonlar hozirgi kun nuqtayi nazaridan juda sodda, ibtidoiy ko'rinsa-da, bu metodik jihatdan juda to'g'ri yo'l edi, chunki

xalqimizning XX asr boshidagi geografiya fani sohasidagi bilim darajasi shuni taqozo qilar edi. Darslikdagi har bir bob, mavzu yoritilganda, Turkiston tabiati, xo‘jaligi, aholisi va boshqa geografik jihatlaridan misollar keltiriladi. Bu bilan muallif darslikni Vatan o‘lkashunosligi ma‘lumotlari bilan bog‘laydi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarda ona-Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy usuli jadid maktablari tarmoqlarini kengaytirish, zamonaviy o‘qituvchilar tarbiyalash sohasidagi Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li faoliyatini qo‘llab-quvvatladi, unga madadkor bo‘ldi: *“Turkistonda muallim chiqormak uchun dorulmuallimin bo‘lmasa ham, har shaharda usuli ta‘limdan xabardor bir-ikki nafar muallim albatta bordur. Ana, muallimlikka tolib kishilarni alarning huzuriga yuborub,*

uch-to'rt oy zarfida usuli ta'limdan xabardor qildirmoq mumkundir. Agar bilfarz, ushbu xizmatni muallimlarimiz iltizom qilmasalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni biroz zahmatlik bo'lsa ham to'g'ridan-to'g'ri Toshkentda Munavvarqori janoblarining maktabig'a yubormoq kerakdurki, mushorun ilayhning munday toliblarni mamnuniyat qabul qilmoqlarig'a amindurmiz. Ishta, muhtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng zo'r ehtiyoji ushbu shaylar ediki, nazari oliylaringiza arz-u taqdim etduk".

“Padarkush” haqida. XX asr boshlarida hayotdagi tub o'zgarishlarga monand holda o'zbek adabiyoti va san'atiga yangi janrlar muvaffaqiyatli ravishda kirib kela boshladi. Hayot va jamiyatda mavjud bo'lgan muammolar haqida chuqur o'ylaydigan, fikr yuritadigan yozuvchilar oldida mislsiz keng imkoniyatlar ochildi. Tashqi adabiy ta'sirlar mumtoz ada-

biy an'analarga tayanib kelgan mualliflar oldiga xarakter, shakl, uslub va tomoshabin (kitobxon)ga munosabat borasida yangi vazifalarni qo'ya boshladi. Mana shu an'analar doirasida ijod etgan mahalliy adiblar yangi o'zbek adabiyotining yetakchilariga aylandilar. "Padarkush" shu tariqa maydonga keldi. Behbudiy Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi milliy dramatik asar yaratdi. Ungacha mazkur hududda na turkiy, na forsiy tilda drama janrida birorta asar yaratilgan edi. Behbudiy davri uchun bu katta hodisa edi.

Asarning dunyo ko'rishi oson kechmadi. Bunga sabab, birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistonining ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi; 1916-yildagi Turkiston general-gubernatori A.Kuropatkinning o'z kundaligida yozgan va bugun juda mashhur bo'lib ketgan "Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus ha-

yotidan 50 yil chetda tutdik”, degan so‘zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg‘unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. “Kimiki sahnada ko‘rsang oni jasorati bu”, deb yozgan edi shoir Tavallo. Bu bejiz emas. Xullas, **1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi.** Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: *“Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatr sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”,* deb yozgan edi.

Zamonaviy drama shu davrdagi barcha



hayotiy muammolar va mumtoz adabiyot an'analaridan ancha uzoq bo'lsa-da, u boshqa janrlarda yozilgan asarlardan farqli o'laroq ijro etish, ko'rsatish xususiyatiga ko'ra mahalliy aholi ko'ngliga birdek yo'l topa oldi. Mana shu muhim jihatiga ko'ra yosh o'zbek dramasi jamiyatda jiddiy islohotlar zarur bo'lib turgan bir paytda muhim ma'rifiy tarbiya vazifasini bajardi.

“Padarkush” — o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif “Milliy fojia” atagan, 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Behbudiyning o'zi ixcham “milliy

tragediya” deb ta’riflagan bu asar millatning o‘z farzandlarni o‘qitish, ma’rifatli qilish, o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatni yuksaltirishga har jihatdan qodir bo‘lishiga qaramay, bu ezgu amallarni bajarishdan bosh tortgan kishilarning qismati haqidagi bashorat edi. Behbudiy asar g‘oyasini keskin ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, xarakterlar kurashi asosida ko‘rsatishdan ko‘ra dramaning ayrim qismlarida ta’lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirish mumkinligini hamda turkistonlik yoshlarning ilm olishdan bosh tortishlari yomon oqibatlariga olib kelishini ko‘rsatishga, ya’ni didaktik tasvirga urg‘u beradi.

Orqa-oldini o‘ylamagan boyning Toshmurod ismli o‘g‘li bor. O‘g‘li o‘qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o‘g‘lini o‘qitmaydi, oqibatda u ko‘cha bezorilariga qo‘shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy

uygʻonib, ularni sezib qoladi. Boyni oʻldirib, pulini olib ketadilar. Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?!

Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar taʼlim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va masʼuliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va taʼsirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga oʻz tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, toʻgʻri yoʻldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi taʼsirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni toʻgʻri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini koʻrib yigʻlaydilar, mamlakat yosh-

larini o'qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar.

Jadidlar jamiyatni rivojlantirish omili, birinchi navbatda, ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga bog'liq ekanligini yaxshi anglab yetgan edilar. Shu tufayli "Padarkush" dramasida bu yetilgan, hayotiy muammo eng dolzarb masala sifatida kuyunchaklik bilan ko'rsatiladi.

Domulla bilan Boy o'rtasida ilm va boylik qudrati xususidagi murossasiz suhbat konflikt darajasiga ko'tarilganda Boy "agar men o'g'limni o'qitmasam nima bo'ladi?" deb so'ramaydi. Bu oldindan qabul qilingan xulosa edi. Boy o'z farzandini o'qitmagani uchun gunohkor, va u gunohkor sifatida o'z jazosini oldi. Ozgina pul uchun qilingan shafqatsiz qotillik o'tkir kinoya bilan qorishib ketadi. Chunki Boy oqibatsiz farzandini to'g'ri yo'lga solib, o'z hayotini saqlab qolishi mumkin edi. Lekin, ikkinchi tomondan, bunday yo'l bilan ham jo-

hil farzanddan omon qolishga kafolat yo‘q edi. Toshmurod ma‘rifatdan, ilmdan bebahra, xasis, ochko‘z maishatboz bo‘lib o‘sgan. Ulfatlari tungi maishat uchun ketadigan pulning katta qismini undan undirishga harakat qiladilar. Chunki u do‘stlari orasida ancha badavlat edi.

Behbudiyning adabiy qobiliyati qotillikning asosiy sababchilaridan biri bo‘lgan Lizani axloqsiz ayol sifatida ko‘rsatishda ham yorqin namoyon bo‘lgan. Muallif Liza orqali barcha e‘tiqodli musulmonlarga yot bo‘lgan, ularda nafrat, jirkanchuyg‘otadigan tipik obrazni kashf qildi, Turkistonga kirib kelayotgan “yevropacha” hayot illatlarini rad etadi. Ayni zamonda, Behbudiy Liza obrazi va jamiyatdagi yaramas odatlarni qoralash yo‘li bilan senzurdan qochishga muvaffaq bo‘ldi. Maishatxonadagi Artun ham na turkistonlik, na arman millatiga xos bo‘lmagan ajnabiy, qiyofasiz inson sifatida ko‘rinadi.

Behbudiy asari uchun og'ir dolzarb mavzu tanlagan. Asardagi ozgina hissiyot va g'azab, nafratni hisobga olmaganda, unda hechqanday romantik yoki tuyg'ularni ifodalovchi o'rinlar yo'q. Asarda ma'rifatdan uzoq bir oila qismati orqali mustamlaka Turkistonidagi ayanchli hayot, nursiz turmush va qoloq musulmonlarning bema'ni qarashlari bilan bog'liq baxtsiz oqibatlar mahorat bilan ko'rsatiladi. Behbudiy dramani "milliy fojia" deyishi bilan birga uni oddiygina qilib "qayg'ulik voqea" deb ham atagan.

Behbudiy mazkur drama orqali jaholat, fikr, dunyoqarashni o'zgartirish bilan birga turkistonlik tomoshabinlar ko'nglida afsus, nadomat tuyg'ularini uyg'otishni maqsad qilib olgan edi. "Padarkush" dramasi kichik dramatik lavha bo'lishiga qaramasdan, u chuqur fojia-viy mazmun kasb etgan. Drama asosidagi eng muhim g'oyaviy-ijtimoiy masalalar jadidlar va

ularning maqsadlari bilan uyg'unlashib ketgan. Shuningdek, yangilik tarafdorlarida uchraydigan nuqsonlar ham jadid obrazi zimmasiga yuklatiladi. Behbudiy ularni foydasiz, xalqiga, yurtiga nafi tegmaydigan ilm egasiga aylanib qolayotganiga achinadi, quruq nasihatchilikni qoralaydi.

Dramadagi ba'zi personajlar uchun tanlangan ismlarda ham kuchli majoziy ma'no-lar bor. Pichoq ko'targan yovuz "Ollohning quli" — Tangriqul edi. Yana boshqa kim bo'lishi mumkin? Qudratli Ollohning o'zi ham ma'rifatsiz, johil, islom an'analari, shariat qonunlari va ruhoniylarning tanbehlarini, ziyo-lilarning pand-nasihatlarini pisand qilmaydigan, tahqirleydigan musulmonlarga dahshatli jazo berib, ogohlantirayotgandek ko'rinadi. Muallif Tangriqul ismini bejiz tanlagan emas. Ziyo-li — "ilm beruvchi, aql-zakovatli, ma'lumot-li" degan ma'no beradi. Boshqa obrazlarning ismlari ham o'z xarakterlariga mos tanlangan.

Demak, jamiyatni isloh qilish bilan bog'liq yangi g'oyalarni bayon etishda drama janri yaxshi imkoniyatlar yaratib berdi. Chunki detektiv yoki mistik shakldagi adabiy janrlar, Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy maqsadini aniq namoyon qila olmas edi. **Amerikalik olim Edvard Olvortning fikricha, o'sha davrda yaratilgan boshqa dramalar Behbudiyning "Padarakush"i kabi muvaffaqiyatli chiqmagan.** Asar dialoglaridagi ayrim detallar muallif fikrini ifodalashda kalit vazifasini bajaradi. Bir lahzada hamma narsasidan mahrum bo'lgan, eri o'ldirilgan ayol shunday baqirib, dod soladi. *"He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush!"* Aynan shu daqiqada Domulla Boyning xotiniga tanbeh beradi: *"Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema'nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi..."*

4-ko‘rinishning so‘nggi daqiqalarida Ziyoli tomoshabinlarga qarata shunday xitob qiladi: *“Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas edi. Oh, haqiqatda boyni o‘ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg‘a giriftor qilgan beilmelikdir”*.

Behbudiy ijtimoiy va siyosiy maqsadlarini asarga singdirish uchun qadim turkistonliklar amal qilgan adabiy o‘yinlar, kinoya va qochiriqlar ko‘p, ma‘noli so‘zlardan mahorat bilan foydalanadi. Behbudiy o‘z yurtdoshlarini chinakam qotil kim va u nima uchun bu jinoyatga qo‘l urgani haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishga majbur qiladi...

“Padarkush” dramasi Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida qo‘yildi. Avloniyning “Turon” truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan

edi. Spektakl oldidan Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o'rnini haqida nutq so'zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun" deb yozadi.

"Turon" truppasi 1914–1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqdi. "Padarkush" Turkistonni junbishga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi yoqdan, professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bu asarning o'z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur "1913-yillarda chiqqan "Padarkush" pyesasi ta'sirida "Baxtsiz ku-

gov” degan teatr kitobini yozib yuborg’onimni o’zim ham payqamay qoldim”, degan e’tirofini eslash kifoya. 1916-yilda Toshkentga kelib, Kolizeyda “Turon”ning qator spektakllarini ko’rgan A.N.Samoylovich yozadi: “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi — Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo’ja Behbudiydir”.

Kutubxonasi va nashriyoti. Turkiston jadidlari orasida katta shuhrat qozongan va ularning ko’zga ko’ringan vakili, adabiy tanqidchilik maktabining shakllanishida katta xizmat qilgan Vadud Mahmudning ta’rificha “Mahmudxo’janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o’run olishga munosib bir otdir”. Mahmudxo’ja Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan

qizg'in shug'ullandi: jadid maktablari tashkil etishda bosh-qosh bo'ldi, teatr san'atiga asos soldi, gazeta-jurnal chop qildi, nashriyot hamda kutubxona tashkil etdi. U siyosiy, ma'rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qildi.

“Behbudiya kutubxonasi” Behbudiyning millat taraqqiysi uchun boshlab bergan xayrli ishlari qatorida turadi. Samarqanddagi dastlabki mahalliy gazeta va milliy jurnalning noshiri, birinchi milliy drama muallifi, Turkistondagi usuli jadid maktablarining, B.Qosimov ta'kidlaganidek, “birinchi nazariyotchi va amaliyotchisi”, eng birinchi darsliklar muallifi bo'lgan Behbudiy kutubxona tashkil qilishda ham birinchilardan bo'ldi.

Ushbu kutubxona Samarqand gubernatoridan rasman ruxsat olinib, 1908-yil 11-sentabr kuni shaharning “Yangi rasta” qismida ochilgan. Lekin kutubxona ochili-

shu xabari biroz avval paydo bo'lgan edi. Bu haqda "Turkiston viloyatining gazetasi" xabar qilgan edi. Kutubxonaning barcha rasmiy masalalari 27 bobdan iborat dasturda belgilab berildi (Turkiston viloyatining gazetasi, 1908-yil, 27-son). Kutubxonaga a'zolik badali yiliga 3 so'm miqdorida tayinlanadi. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari, madrasa talabalarining zamonaviy ilmlarga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlashga yo'taltirildi.

Kutubxonani yo'lga qo'yishda unga safdoshlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va muallim Abdulqodir Shakuriylar ko'maklashdi. Kutubxona qisqa vaqt ichida juda qimmatli ilmiy, mahalliy va xorijiy matbuot nashrlaridan iborat katta fondga ega bo'ldi. Jumladan, kutubxonada turli davlatlarda nashr qilingan diniy hamda dunyoviy kitoblar, suratli jurnal va gazetalar, ensiklo-

pediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin edi.

Dastlab 200, keyinchalik 225 jild kitobga ega kutubxona kun davomida 14 soat ishlab turgan. Kutubxona ochilganiga 7 oy to'lganda uning a'zolari soni 125 nafarga yetdi va u o'tgan davr mobaynida 2000 ga yaqin kitobxonning ma'naviy ehtiyojini qondirgan edi. Dastlabki ikki yil kutubxona ishlari uchun xayrli kechdi. Kutubxonaga a'zo va yon bosuvchi ko'ngillilar yetarlicha topilib turdi. Lekin 1910-yilga kelib uning faoliyati susaya boshladi. Buning bir qancha sabablari bor edi. Xususan, jadid-qadim ixtilofi va qadimchi ulamolarning jadidlarga qarshi uydirmamish-mishlari bunga asosiy sabab bo'ldi. Ilmdan bebahra va bu ishlarning fahmiga tushunib yetmagan avom esa uning zavoli uchun kurashdi. "Turkiston viloyatining gazetasi"ning 1910-yil 16-sonida berilgan xabarga ko'ra,

ulamo kutubxonani kofirxona, zararli joy deb e'lon qiligan va ota-onalarga farzandlarini unday joylarga yubormasliklari to'g'risida fatvo chiqargan edi.

1912-yilga kelib esa kutubxona butunlay nochor ahvolga kelib qoldi. Moliyaviy muammo kun tartibiga chiqdi. Shunday bo'lsa-da, kutubxona Behbudiyning harakatlari tufayli faoliyatini davom ettirib turdi. 1914-yilning boshida kutubxona faoliyat ko'rsatishga qiyanalib qoldi. Ushbu yilning yillik yig'ilishida kutubxonaning 15 a'zosi ishtirokida kutubxonani saqlab qolish va uning moliyaviy muammosini hal etish uchun spektakl qo'yishga qaror qilindi. Lekin bu tadbirning kutubxonani jonlantirish uchun foydasi bo'lmadi. Behbudiy uzoq yillar xalqqa xizmat qildirmoqchi bo'lgan millat kutubxonasining taqdiriga nuqta qo'yildi. Shundan so'ng Behbudiy kutubxonani o'z hovlisiga ko'chirdi va unga "Behbudiya ku-

tubxonasi" deb nom berdi. Shu munosabat bilan Behbudiy Rossiya va xorijda nashr etilgan kitob va matbuot nashrlarini arzon narxda sotilishini ham e'lon qildi. "Oyina"ning ketma-ket o'nga yaqin sonida sotiladigan kitoblar nomi va narxi ro'yxat qilib berib borildi. Ularni ko'zdan kechira turib sobiq kutubxonaning qanday kitoblarga ega bo'lganini bilish mumkin. Xususan, ushbu ro'yxatda **"Tarixi Eron"**, **"Tarixi madaniyat"**, **"Usmonli rus safari"**, **"Yaman sayohatnomasi"**, **"Tarixi asotir"**, **"Muxtasar tarixi madaniyat"**, **"Hindiston sayohatnomasi"**, **"Ilmi hayvonot"**, **"Latoyifi Xo'ja Nasriddin"**, **"Shohnomayi mumtozi oliy"**, **"Nizomiy kulliyoti"**, **"Bedil kulliyoti"**, **"Masnaviyi sharif"**, **"Haqiqatnoma"** kabi kitoblar hamda **"Siroj ul-axbor"** (Afg'oniston), **"Qadinlar dunyosi"** (Qozon), **"Chehranamo"** (Misr), **"Hablul matin"** (Kalkut-

ta), “Tarjumon” (Bog‘chasaroy), “Mulla Nasriddin” (Boku), “Yulduz” (Qozon), “Sho‘ro” (Orenburg) singari gazeta va jurnallarni ko‘rish mumkin.

Behbudiyning ham nashr ishlari bilan shug‘ullanganligini tasdiqlovchi ma‘lumotlar ko‘p bo‘lsa-da, uning nashriyoti haqida faktlar yetarlicha emas.

Ushbu nashriyot o‘z bosmaxonasiga ega bo‘lmay, balki kutubxona tarkibida faoliyat yuritgan va Behbudiyni o‘zi nashrga tayyorlagan kitoblarni Samarqanddagi bosmaxonalarda chop ettirgan. Sababi bir paytda ham kutubxona, ham bosmaxona faoliyatini mablag‘ va uskunalarni bilan ta‘minlash boshqacha sharoitni talab qilardi.

“Nashriyoti Behbudiya”da ilk bor Behbudiyning turkiy tilda tuzgan Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasi, darslik qo‘llanmalari, “Padarkush” dramasi va Fitratning “Sayyohi

hindiy" asari ruschaga o'girilib chop etilgan. Garchi bu kitoblar narxi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, Behbudiy "ularni o'z masorifi bilan bosib tarqatdi". Behbudiy o'z rahnamoligida ochgan maktablari uchun darslik yozgan, nashr ettirgan va ularni "tekinga tarqatgan" yagona muallim edi.

Kutubxonalar tarkibiga kiruvchi nashriyotlar faoliyati bugungi kunda ham davom etayotgan jarayondir. "Behbudiya kutubxonasi" hamda "Nashriyoti Behbudiya" ham birgalikda xalqqa xizmat qilgan, Behbudiyning jadid qiyofasini yoritib turuvchi ziyo maskanlari edi.

"Behbudiya kutubxonasi" va "Nashriyoti Behbudiya" 1908–1915-yillar orasida faoliyat olib bordi. Kutubxona fondidagi noyob asarlar va qo'llanmalar ko'pchilik kitobxonlar ehtiyojini qondirdi. "Nashriyoti Behbudiya"ning sa'y-harakatlari bilan chop etilgan xarita va darsliklar maktab muallim va

shogirdlari uchun ko'p yillar xizmat qildi.

Behbudiy va matbuot. Mahmudxo'ja Behbudiy butun Rossiya imperiyasidagi ilg'or, hur fikrli, islohotchi musulmonlar bilan muntazam aloqada bo'lib turgan. Ayniqsa, u qrim-tatar ma'rifatparvari, Rossiya musulmonlari orasida yoyilgan jadidchilik — yangilanish harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiyning sodiq muxlislaridan, shogirdlaridan biri desak, xato bo'lmas. Chunki uning fikrlari, qarashlari ko'pda Gasprinskiy tutgan yo'lga, olib borgan ishlariga muvofiq tushgan. Bu holni Behbudiyning o'zi ham maqolalarida tilga oladi. Nemis olimasi professor Ingeborg Baldauf ta'kidlashicha, Behbudiy Gasprinskiyning "musulmon jamiyati ijtimoh eshiklarini lang ochib, yaxshilik tomon yuz tutadi, hozirda hukm surib turgan bid'at, xurofotdan xalos bo'ladi" degan fikrlarini jon-dildan ma'qullar, o'zi ham shu fikrda edi.

Behbudiy Turkiston aholisini ma'rifatli, bilimli qilishda juda sermahsul, sermazmun faoliyat olib bordi. Yana Hoji Muin so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, "*Behbudiy afandi... qo'lig'a qalam olib, ...Turkistonning yangilik va yuksalishig'a hormay-tolmay, talashib-tortishib xizmat qilg'on birdan-bir muharrir va yo'l boshchi*" edi. Uning ushbu faoliyatining eng muhim bir qismini jurnalistlik, gazetachilik tashkil qiladi. U bir qancha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarish bilan birga, "Xurshid", "Tujjor", "Haqiqat" (keyinchalik "Shuhrat") kabi mahalliy gazeta va jurnallarda ishtirokidan tashqari Kafkaz, Qrim, Volgabo'yi musulmonlarining vaqtli nashrlarida ham faol qatnashib turgan. "*Behbudiy afandi, yozadi Hoji Muin, Kafkaz, Totoriston va Turkistonda chiqqan matbuotda doim adabiy, ilmiy, ijtimoiy va siyosiy maqolalar yozib turar edi.*"

Behbudiy jami 18 ta vaqtli matbuot nashrida faol qatnashgan va jami maqolalarining soni 200 ga yaqin bo'lgan. Hoji Muin ko'rsatgan bu nashrlar orasida Turkistondan tashqarida nashr qilingan "Tarjumon", "Vaqt", "Sho'ro", "Tirik so'z", "Ulfat", "Irshod", "Toza hayot" kabi o'z davrining mashhur gazeta va jurnallarini ko'rishimiz mumkin.

Behbudiy maqolalarning aksariyati Turkiston maktab-madrasalarining islohi, bu borada qilinayotgan sa'y-harakatlar haqida edi. *"Behbudiy maqolalarining ko'bisi muhim mavzularda yozilg'on bo'lib, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturulamal bo'laturg'on foydalik so'zlardur"*, deb yozadi o'z vaqtida Hoji Muin. Masalan, uning "Tarjumon"dagi "Turkistonda maktab lisoni" (1909-yil, 14-, 21-sonlar) maqolasi "... maktab lisoni tahsilasi bobinda bahs..." bo'lib, bunda Behbudiy Turkistondagi maktablarda

tahsil bir tilli emas, bir necha tilli bo'lishini yoqlab chiqqan edi.

Behbudiyning Turkistondan tashqaridagi vaqtli nashrlardagi faoliyatini kuzatar ekanmiz, unda vaqt jihatdan ma'lum bir chegaralanishni kuzatamiz, ya'ni 1909—1913-yillar orasida u o'sha nashrlarda faolroq ishtirok etgan va o'z maqolalariga “Muftiyi dorulqazo Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja”, “Dorulqazo muftilaridan: Mahmudxo'ja Behbudiy” kabi imzolar qo'ygan.

Shunisi achinarliki, Turkiston jadidlarining yetakchisi bo'lgan Behbudiyning o'lkadan tashqaridagi vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalari haligacha to'planib, tadqiq etilmagan. Bu Behbudiy ijodini o'rganishda hozirgi tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkistondan tashqaridagi vaqtli matbuot nashrlarida-

gi faoliyatini tadqiq qilish davomida uning bir necha hozirgacha noma'lum bo'lgan maqolalari topildi. Ulardan biri Abdurashid Ibrohimov tomonidan nashr qilingan "Islom dunyosi" jurnalida chop etilgan "Tullobi kiroma", ya'ni "Aziz talabalarga murojaat" maqolasidir. Maqolaga "Samarqand, Mahmudxo'ja Behbudiy" imzosi qo'yilgan.

Ushbu maqolada Behbudiy asosiy urg'uni madrasa talabalari tahsil olayotgan darsliklar mazmun-mohiyatini anglatishga, yangi davr talabasi yangicha fikrlar beradigan zamonaviy darsliklardan o'qib o'rganishlariga qaratgan. Bu maqolada muallif zamonda tenglar bilan bir safda qadam tashlash uchun 500 yil oldin yozilgan asarlardan emas, dunyo kashfiyotlari, ixtirolari, yangi fikrlari bilan sug'orilgan yangi ilmiy asarlar yaratilishi va ular asosida talabalarga tahsil berilishi kerakligiga alohida e'tibor qaratadi. Behbudiyning ushbu fikrlari hozir-

gi zamon tahsili uchun ham hali-hamon dolzarbligini yo'qotgan emas.

Shuningdek, Behbudiyning shu kungacha qadar noma'lum qolgan maqolalaridan biri, bu — "Siroti mustaqim" jurnaliga yuborilgan maktubi. Behbudiy boshliq Samarqand jadidlarining o'sha vaqtdagi Turkiya ziyolilari bilan bo'lgan aloqalari, u yerdan olingan matbuot hamda davrda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga aniqlik kiritish nuqtayi nazaridan ushbu maktubning ahamiyati kattadir.

Maktubda mashhur sayyoh, ulamo Abdurashid Ibrohimov samarqandlik jadidlar unga o'zlarining yuksak hurmatlari va salomlarini jurnal tahririyatidan yetkazib qo'yishlarini iltimos qilgan. Bu faktning o'zidan Abdurashid Ibrohimovning O'rta Osiyoga qilgan 1908-yilgi safari davomida Samarqandga kelgani va u yerdagi ma'rifatparvarlar bilan ko'p muloqot qilganligi hamda iliq taassurot

qoldirganini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, xorijiy matbuotga obuna bo'lish va olish yo'llari haqida ham Behbudiy ma'lumot berib o'tadiki, bu ham jadidlarning tashqi aloqalari qay darajada shakllangani, aloqa vositalari va boshqalar haqida umumiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

“Oiyina” haqida. 1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Apreldan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to'xtagan. O'sha yilning 20-avgustidan u “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik majalla asosan o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilardi. *“Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy*

chamasi davom qildi... Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyaga-cha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o'qildi", deb yozgan edi Ziyo Said. Jurnal redaksiyasi muharrirning Yangi shahardagi uyida joylashgan bo'lgan.

Behbudiy "Oyina" jurnaliga muharrirning eng qizg'in ijod pallasini aks etib turgan ko'zgu sifatida qarash mumkin. "Turkiy va forsiy o'rta shevada" chiqqan ilk jurnal "Oyina" xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Birgina Turkistonda emas, "dunyo musulmonlari orasida yaxshigina shuhrat va e'tibor" qozongan "Oyina" millat uchun "yasalgan" edi: "...majalla bizniki emas, millatnikidir", deb ta'kidlaydi Behbudiyning o'zi. Haqiqatan ham, "Turkistonga xizmati buyuk" deb e'tirof etilgan "Oyina" bu yo'lda og'ishmay ijod qildi, "o'lka xalqlarining fikriy uyg'onishiga katta

hissa qo'shdi". Behbudiy jurnalni "Mir'ot" — "Ko'zgu" — "Zerkalo" — "Oyina" deb to'rt tilda nomladi va u forscha nomi bilan shuhrat topdi. "Oyina"ning maqolalari o'zbek va tojik tillarida yozilgan. Buning ko'proq ulushi o'zbek tiliga to'g'ri keladi. Jurnal rus tilida reklama va e'lonlar berib borgan. Jurnalning "Doxiliy (ichki) xabarlar" ruknida Turkiston ijtimoiy-maishiy, ma'rifiy hamda siyosiy hayotida ro'y berayotgan yangilik va o'zgarishlar yoritilgan maqolalar berib borilgan. "Xorijiy (tashqi) xabarlar" ruknidagi maqolalarda, asosan, xorijda ro'y berayotgan siyosiy va ma'rifiy jabhadagi xabarlar berilgan. "Adabiyot" rukni o'z ichiga adabiy-tanqidiy maqola va parchalar, taqriz va she'riy asarlarni olgan. "Ilmiy maqolalar" ruknida Behbudiy va uning zamondoshlari hamda xorij sharqshunoslari (xususan, Vyatkin)ning tarix, geografiya, tilshunoslik, astronomiya, anatomiya, arxeologi-

yaga doir kuzatishlari e'lon qilib borilgan. "E'lonlar" ruknini jurnal va mushtariylarning o'zaro axborot almashish minbari bo'lgan deyish mumkin. Idoraga kelgan ayrim maktublar va muharrirning ularga javoblari, yangi ochilgan maktab va kutubxonalar, nashr etilgan kitoblar e'loni ushbu ruknning asosini tashkil etadi.

Jurnal sahifalarini tadqiq etish jarayonida uning birinchi yilidagi sonlarida turli mavzudagi maqolalarga keng o'rin berilgan bo'lsa, ikkinchi yilga kelganda esa, "Oyina"ning tanqid kuchi biroz susaygan, she'riy parchalar miqdori ortib ketganligini kuzatish mumkin. Xususan, o'quvchilardan biri yuborgan maktubda bu hol shunday ta'rif etilgan: *"Oyina" bultur mushtariylarg'a ko'zingni och deb qichqirar edi. Bu yil esa xonandalarni beshikda tanbur aytib uxlatmoqdadirki, ilgarigi maslakida davom etsun*".

Biroq katta rejalar bilan ish boshla-

gan jurnal mushtariylar tomonidan yetarlicha qo'llab-quvvatlanmadi. Uning tashkil etilgandagi ehtiroslar otashi tez so'ndi. Barcha ishlar birgina muharrir zimmasida qolib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, jurnal saviyasiga ta'sir etmay qolmadi. Hamma masalada bo'lganidek, "Oyina"ga nisbatan ham muxlislar nigohida ikki xil qarash bo'lgan. Jurnal sha'ni-ga yog'dirilgan "tabrik yog'murlari" bilan bir qatorda "Oyina"ning tashkil topganiga ko'p vaqt o'tmay e'tirozlar bitilgan xatlar ham kela boshladi. Fitratning jurnalda e'lon qilingan "Himmat va saboti bo'lmagan millatning haqqi hayoti yo'q" (1915-yil 7-son) nomli maqolasida yuqorida aytib o'tilgan holat ancha batafsil tahlil etilgan. Xususan, *"Butun Turkistonda bo'lmasa ham, u katta Samarqand shahrinda shul keraklik majallani halokatdan qutqaraturgon bir necha himmat egalari yo'qmidur ajabo?! Qani ul tabrik yog'mur-*

lari! Qani ul tashakkur to'fonlari?..." degan iztirob to'la so'zlarini ko'rish mumkin. Yana bir jihatdan olib qaraganda, bu tanqidlar "Oyina" ning doim e'tiborda bo'lganligini ham dailaydi. Lekin bu e'tirozlarning ko'pi bir-birini inkor qilardi. Behbudiy jurnalning 15-sonida xuddi o'shanday bir-biriga javob bo'luvchi xatlardan bir qanchasini chop etdi. Birinchi maktub muallifi "Toshkentlik" jurnalni o'z foydasi uchun xalqqa "xushomad" qilayotganlikda ayblaydi. Uning fikricha, "Oyina" juda bo'sh yozadi. Yana bir maktub muallifi "Qo'qonlik" esa o'quvchilar ko'ngliga qattiq tegadigan va "xalqni o'zidan nafrat qilduradur"gan uslubda davom etsa, "Oyina" o'z-o'zidan "sinub" yo'q bo'lishini aytib, "bo'sh" jurnalning uslubini "o'ta qattig'" deb baholaydi: "...*alalxusus ulamo va boylarg'a hatto usuli jadidchilarg'a "Oyina" so'zlari qattig' tegib xalqni o'zidan nafrat qildiradur. ...ulamo yomon degan-*

dan so'ngra xalq "Oyina"ni o'qumaydurgan bo'lur. Albatta, xalqni, xususan, ulamoni tanqid qilinmasun..." Shu kabi "Oyina"ga yo'l ko'rsatuvchi yana bir maktubda "Oyina" doim yomon ishlarni topib yozadi, yaxshi jihatlarni ko'rmaydi, deb tanqid qilinadi. Ya'ni Behbudiy millat sha'niga noloyiq deb bilgan illatlarga qarshi chiqib, "Oyina" minbarida ularga munosabatini bildirib turganligi tanqid qilinmoqda. Maktub muallifi muharrirning bu ishlariga qarshi chiqadi: "...to'y va ma'rakani kichik bo'lsun, masorifi ozaysun, bazmlar yo'q bo'lsun deb yozar. Ammo bu nimarsalar avvaldan bor edi. Yana bo'lur".

Keyingi maktublarda jurnalning tili haqida gap ketadi. Samarqandlik muallif fors tilidagi maqola va she'rlar "Oyina" tilini og'ir qilib qo'yayotganligidan nolib, xalq anglaydigan "oson o'zbekiy ila" yozishga chaqiradi. Yana muallif yozadi: "Bizg'a tarix va fandan

yo'zmay, har kim bilaturgon va qiziqaturgon xabar va g'alati ajoyibotlardan yo'zing. Bu "Oyina"ngiz qiziq emas. Oshiqona g'azallar ko'broq yozilsa yaxshi bo'lurdi". E'tiroz kayfiyatidan ko'rinib turibdiki, maktub egasi — oddiy avom vakili. Navbatdagi maktub mazmuni esa, yuqoridagisining aksi: "Oyina" tilini avomcha va ko'chagi qilib yuborilibdur. Muni avom o'qimaydur. Ahli ilm va adabiyoti jadida oshiqolari o'qiydur". Maktub muallifining fikricha, jurnal avom uchun emas, uni fanniy narsalardan ko'proq yozib, ilmiyroq qilish kerak edi. Maktublar ichida birgina fors tilida yozilgani ham bo'lib, uning muallifi Munzim Buxoriy edi. Munzim forsiy tilning hozirda keng yoyilib borayotgani holda, nima sababdan "Oyina" forscha kam yozadi, deb savol qo'yadi. Mushtariylar ra'yiga qarab aqalli jurnalning yarmini bo'lsa ham forsiy she'r va maqolalar bilan boyitish lozimligini

maqbul deb taklif kiritadi. Behbudiyda esa forsiy va turkiyga bir til, ya'ni musulmoniy deb yondashish mavjud bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning "Oyina"dan ko'ngli to'lmagan. Maqola yo'llovchilar kam bo'lgani sababli, muharrirning ko'proq ijod qilishiga to'g'ri kelgan. Bir xil uslub ham o'quvchilarni zeriktirishi tabiiy. Jurnalning ba'zi sonlariga nisbatan *"24 sahifani hamasi Mahmudxo'jani qalami ila to'ladur, desak ham bo'lur"*. Sababi, yuqorida aytilganidek, maqola yuboruvchilar siyraklashib qolgan edi. Behbudiy bularga javoban "Oyina" sahifalari har kimga ochiqligini ta'kidlaydi.

"Oyina" jurnali juda oz mushtariy bilan ikkinchi yilini boshlaydi. Uning zimmasiga yog'ilayotgan talablar esa yana-da kuchayadi. Endi mushtariylar jurnalni boshqa nashrlar bilan solishtira boshladi. Buxorolik bir maktub yo'llovchi "Oyina"ga "Sadoyi Turkis-

ton" imlosini qabul qilish taklifi bilan chiqadi. Namanganlik muallif "Oyina"ni "Sho'ro" va "Dirilik"dek qilib chiqarilsin, deb keskin talab qo'yadi. Behbudiy Samarqanddagi matbuot ishlari mukammal emasligini, "Dirilik" va "Sho'ro"dek chiqarmoq uchun yana 15-20 yil vaqt kerakligini tushuntirishga urinadi. Mirmuhsin Shermuhamedov (1895—1929) ham o'z maktubida jurnal mundarijasini "Sho'ro" kabi avvalgi sahifada yozilishini so'raydi. Hamma talablarning qondirilishi ilojsiz bo'lgani sababli Behbudiy bularni ijrosiz qoldirgan deb taxmin qilish mumkin.

Qarshi fikrlar yozilgan mavzularning biri muhoraba, jang xabarlar edi. Harbiy va siyosiy xabarlar Turkiston matbuotining eng ko'p o'quvchi to'play oladigan mavzularidan biri bo'lgan. Bunday xabarlar gazetada berish uchun qulay bo'lib, jurnal oyda bir yoki ikki marta chiqquniga qadar bu xabarlar o'z

yangiligini yo‘qotar edi. “Oyina” jurnalida muhoraba xabarlarining berilishiga M.Shermuhamedov ko‘p e‘tiroz bildirgan. Hatto ayrim shunday iltimoslar bilan xat yo‘llagan mualliflarni tanqid ostiga oladi: “Muhoraba xabarlari yoki sud-u sudya voqeotlari yozilmasa yaxshi bo‘lur, nimagaki boshqa jaridalardan bul voqealar ilgariroq eshutilur”. Behbudiy ham ushbu fikrlar tarafdori bo‘lgan. U muhoraba xabarlarini o‘qish uchun “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona”ni tavsiya qiladi. Jurnal uslubini esa adabiy, ilmiy, tarixiy, fanniy maqolalardan iborat bo‘lishini lozim deb bildi.

Idoraga keluvchi maktublarda oshiqona she‘r ixlosmandlari ko‘p uchraydi. Shu kezlarda jadidlar orasida oshiqona g‘azallar yozish qattiq qoralanar edi. Ishqiy-an‘anaviy she‘rlar butunlay inkor etilmagan. Xususan, “Oyina” jurnalida ham badiiy jihatdan puxta ishqiy she‘rlar chop etib turilgan. Faqat bu davrda

adabiyot milliy ozodlik, mustaqillik g'oyalari-ning asosiy o'rinda turishini talab qilardi. Shu bois ma'rifiy ruhdagi bir xil she'rlar ko'p berilgan. Masalan, "Tanbeh va bayoni voqe'" (1913, 1-son), "E'tirof" (1913, 3-son), "Hamiyat ahlina!" (1914, 4-son), "Yig'lar biza" (1914, 15-son), "Taassuf" (1914, 18-son) kabi she'rlar mazmun jihatdan o'xshash.

"Oyina" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Behbudiy millatning taraqqiy-si uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqqan edi...

“Oyina” tashkil etilgan kundan uning faoliyati va mazmunini boyitish to‘g‘risida turli-tuman maslahatlar jurnalning oxirgi soniga qadar yonma-yon ketdi. Ularda maqolalar hajmi ikki sahifadan oshmasligi, jurnal “qalinroq” bo‘lishi va ko‘proq chiqishini xohlovchi talablar yangray boshladi. Quruq maslahatlar ko‘p edi. Lekin jurnalning taraqqiysi uchun amaliy ish qiladiganlar yo‘q edi hisobi. Behbudiyy bu istaklarni amalga oshirish uchun pul va ko‘ngillilar yo‘qligini, o‘zining “kasal nimkora” holi bilan bu ishda ojizligini ochiq-oydin yozdi.

“Oyina”ning asta-sekin darz ketayotganini so‘nggi sonlaridan ham payqash mumkin. Avval boshida Tavallodan boshlangan yuz o‘g‘irishlar samarqandlik ziyolilarga ham o‘tdi. Hoji Muin, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Siddiqiy Ajziylar “Oyina”dan “qalam”larini to‘xtatdi. Jurnal Behbudiyyning ilmiy maqo-

la va she'rlari jamlangan to'plamga aylanib qolayotgan edi. Shu o'rinda Mirmuhsin Sher-muhamedovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "...bizda yangi bir asar ko'runa boshlasa, 5-6 kun baqirib-chaqirib she'r va maqola yozarmiz, so'ngra charchagan kishi bo'lib o'z manfaatimizga bechora millatni qurbon qilib o'lturavoramiz. Shuning uchun bizim o'rtamizda matbuot e'tiborsizlanub boradur". Ushbu "arznoma"lardan sezish mumkinki, "Oyina" haqiqatan ham xalq qalbiga umumiy yo'l topa olmagan.

1914-yil 52-sonidan keyin "Oyina" o'z faoliyatini to'xtatishga qaror qildi. Biroq idoraga kelgan iltimoslar sabab 68-sonigacha davom etdi. **1915-yil 15-iyundagi 16-son (68)dan "Oyina" tugatildi.** Idora buning so'nggi sababi qilib muharrirning betobliligi va tahrir etuvchi kishining yo'qligidan deb ko'rsatdi. Bildirishnomada "Oyina"ning

17 (69)-soni chiqariladi, deyilgan bo'lsa-da, jurnal qaytib dunyo yuzini ko'rmadi.

“Oyina” jurnali qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, unda chop qilingan adabiy-tanqdiy hamda ilmiy-ma'rifiy maqola va she'rlar XX asr adabiyotining noma'lum sahifalari haqida tasavvur beradi. Mahmudxo'ja Behbudiy ijodkorligining eng qizg'in va muhim tomonlarini ochib berishda, shubhasiz, “Oyina” jurnali katta o'rin tutadi.

Til masalasi. Behbudiyning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, u ta'lim, jurnalistika, siyosat, ijtimoiy masalalar sohalarida samarali ish olib borgan bilan ham Turkiston jadidlari orasida ajralib turadi. Va, bu faoliyat qirralarini tadqiq etilsa, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining yetakchisi ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning ko'p qirrali faoliyatida til, ayniqsa, adabiy til, shuningdek, til o'rganish masalasi alohida o'rin tutadi. Albatta, Beh-

budiy, qaysi sohada bo'lmasin turli muvaqqat nashrlar uchun yozgan maqolalarida o'zi Turkiston o'lkasi uchun "adabiy til" hisoblagan tilda yozishga harakat qilgan. Shu o'ringda Behbudiyning umumiy til yoki adabiy til hamda o'sha davr uchun o'ta dolzarb bo'lgan "umumadabiy til" masalasidagi pozitsiyasini aniqlashtirib olish juda muhim.

XIX asrning oxiri, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, **1883-yildan boshlab, ya'ni "Tarjumon" gazetasi**ning ilk sonidan **Ismoil Gasprinskiyning turkiy xalqlar uchun yagona adabiy til, Ingeborg Baldauf iborasi bilan aytganda, "murosa shevasi" yaratish fikrini ilgari surdi.** Gasprinskiyning turkiy xalqlar uchun "umumadabiy til" yaratishga qaratilgan harakati uning "millat" va "milliylik" konsepsiyasi hamda ushbu konsepsiya talqinining mahsuli, deb hisoblash mumkin. Gasprinskiy tilga oid

e'lon qilgan ko'psonli maqolalarida o'quvchilar fikrini yuqoridagi "millat" konsepsiyasini tushunishga qaratadi. Unga ko'ra, "millat, bu — din va til birligi. Ushbu ikki narsadan biri yo'qotilsa" millat o'zligini yo'qotadi, inqirozga yuz tutadi. Gasprinskiyning ta'kidlashicha, barcha millatlarning o'tmishi, kelajagi din va tilga asoslangan. Din birligi qanchalik muhim bo'lsa, adabiy jihatdan til birligi ham shu qadar muhim va bevosita taraqqiyot vositasi hisoblanadi. Gasprinskiy til birligini o'ta muhimligini ko'rsatish maqsadida, hatto uni boshqa barcha birliklarning boshi va negizi darajasiga olib chiqdi.

Bu jihatdan olib qaraganda turkistonliklar orasida birinchi bo'lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g'oyasini keng targ'ib qildi va quvvatladi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o'ziga xos so'rovnoma va tajriba ham o'tkazdi. Bu jihatdan biz Beh-

budiyini turkistonliklar ichidagi birinchi sotsiolog sifatida ham kashf etamiz. Behbudiy o'zining sotsiologik tadqiqoti davomida umuman gazeta o'qimagan, boshqa turkiy xalqlar tilidan xabari yo'q oddiy odamlarga turli gazetalarini o'qitib eshittirdi va shu yo'sinda Turkistonning turli hududlaridan o'qib eshittirilgan gazetalarining "tili" bo'yicha fikrlarni jamladi, umumiy xulosa berdi. Behbudiy o'tkazgan tajriba va so'rovnomasi asosida turkistonliklar uchun Gasprinskiyning "Tarjumon" gazetasi, sibirlik, asli buxorolik tujjorning avlodidan bo'lgan, **XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Abdurashid qozi nomi bilan tanilgan** Abdurashid Ibrohimovning "Mir'ot" jurnali hamda "Ulfat" gazetasining tili ko'proq tushunarli, degan xulosaga keldi. Va "chorak asrdan beri millatimizga til, qalami, qalb quvati bilan xizmat qilgan, yangi matbuotimiz raisi ham otasi janob Ismoilbek hazratlariga til

bobida ergashmoq Rossiyadagi hamma muharrirlarga lozim” ekanligini tavsiya qildi. Bu bilan Behbudiy ham Gasprinskiy kabi Rossiya musulmonlari birligining asosi va negizida til birligi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Behbudiy yagona, umumadabiy til borasida fikrlarini davom ettirib, “...til birligining foydalari juda yaxshi ma’lum. Zero, til birligi do‘stlik, muhabbat, bir-biriga yordam va jipslashuvning asosi” degan amaliy xulosaga keladi. Mavlono Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asaridan til to‘g‘risidagi baytlaridan misollar keltiradi.

Behbudiy Turkiston uchun turkiy bilan bir qatorda forsiy tilning “o‘rta sheva”sini ilgari suradi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1913–1915-yillarda Samarqandda Behbudiy tomonidan nashr qilingan “Oyina” jurnalini ko‘rsatish mumkin. Baldauf Behbudiyning bu tashabbusini o‘z o‘quvchilari bilan hamfikir va hammaslak ekanligini bildirish va ko‘rsatish deb baholaydi.

Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy "Oyina"ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili "Tarjumon"ga yo'llagan "Turkistonda maktab lisoni" nomli maqolasida ko'targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tilning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e'tibor qaratmoqchi bo'ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanligini ilgari surdi. Behbudiy o'z fikrlarini quyidagi argumentlar bilan isbotlashga harakat qildi:

1) Turkistondagi aksariyat shahar aholisi turkiy va forsiyda bermalol muloqot qiladi;

2) ba'zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatiladi;

3) rasmiy idoralarga arizalar turkiyda yoziladi;

4) shar'iy fatvolar forsiyda yozilib, turkiyda qayd qilinadi va bu usulga butun Turkistonda amal qilinadi.

Behbudiy maqolasining so'ngida o'zi kel-

tirgan isbot va dalillarga tayangan holda Turkiston maktablarida ham turkiy, ham forsiy birga o'qitilishi maqsadga muvofiq degan xulosasi beradi.

Behbudiy (umum)turkiy tilni "Tarjumon" gazetasi vositasida o'zlashtirganligini bayon qilgan ekan, "ona tilim forsiydir, yozgan turkchamni ruhoniyl xojam "Tarjumon" sahifalaridan tahsil etdim", degan fikri bilan o'rtoqlashadi. Bu esa Gasprinskiy taklif qilayotgan (umum) adabiy yoki (umum)turkiy til yaratilganligidan darak beradi. Shuningdek, Gasprinskiy tarafidan nashr qilingan "Tarjumon" gazetasining Turkiston o'lkasidagi e'tiborini "usuli jadida nomi bilan isloh qilingan va ochilgan maktablar muhtaram "Tarjumon" ta'sirida alifbodan oxiriga qadar turkcha dars berib, Turkistonda turkchani yoyilishiga xizmat qilgan"ligida ham ko'rish mumkin. Bu so'zlar ham Behbudiyga taalluqli.

“Tarjumon” va Gasprinskiy faoliyati Behbudiy e’tiroficha, Turkistonda juda katta ta’sirga ega bo’lgan. Behbudiy Turkistondagi “barcha muallim, ustod va muovinlar “Tarjumon” yordamida” turkiy tilni o‘rganganliklarini hamda “Tarjumon” vositasida chorak asrdan beri “zamonaviy yangi adabiyot” bilan tanishish, “madaniy ehtiyoj”larini to‘la qondirish imkoniga ham ega bo‘lganliklarini ta’kidlaydi. Behbudiy turkcha yoki turkiy til deganda Gasprinskiy taklif etgan “umumturkiy adabiy til”ni nazarda tutadi.

Begali Qosimov imperiya musulmonlari xususan, Turkiston o‘lkasining taraqqiy etgan millat qatoriga qo‘shilishi va, oxir-oqibat, mustaqillikka erishish yo‘lidagi kurashda Behbudiyi Gasprinskiy bilan bir maslakda bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu maslak Gasprinskiy taklif etgan “murosa yo‘li” bo‘lib, ruslarning hamda ularning madaniyati yutuqlari yor-

damida ma'rifatga erishish, va eng asosiysi, bu yo'lda milliy xususiyatlarni yo'qotmaslikni talab etadi. Behbudiyning rus tilini o'rganish va rus madaniyatidan istifoda etish borasidagi fikrlarini uning ko'plab maqolalarida uchratish mumkin. Xususan, uning "Oyina" jurnalining ilk sonida chop qilingan "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo'lishlari, zamona ilmlaridan, fikrlaridan bahramand bo'lishlari uchun "turkiy, forsiy, arabiy va rusiy" tillarini bilishlari, ularda bermalol muloqot qilish darajasiga yetishishlari lozimligi ta'kidlanadi. Behbudiy bu maqolada "turkiy" til deganda mahalliy xalqning aksariyati so'zlashadigan "o'zbekiy" tilni nazarda tutadi. Unga ko'ra, to'rt tilning o'rganishga sabablar quyidagilardan iborat:

- 1) turkiy, ya'ni o'zbekiy — Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan til;
- 2) forsiy — madrasa va udabo tilidir.

Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur;

3) arabiy — madrasalarda o'qitiladigan barcha shar'iy kitoblar ushbu tilda;

4) rusiy — “zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat” qilishga yararlik zamona ilmini o'rganish uchun.

Behbudiy til o'rganishga sabab bo'ladigan omillarni ko'rsatar ekan, turkiy va forsiy mahalliy xalq uchun ikkisi birday ona tili bo'lganligi uchun “bizg'a saodat” ekanligi va ushbu tillarni har bir turkistonlik “tahsilsiz” ham yaxshi bilishini ta'kidlaydi. Ushbu tilni mukammal bilganlar forschada bitilgan “Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, “Masnaviy”dan qanday lazzat olsa”, buning barobarida turkiyda yozilgan “Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana

To'lstoy, Jul Vern va ulamoi zamoniylarining asarini turkiy tarjimasidan" shunchalik bahramand bo'lishi mumkinligiga urg'u beradi.

Behbudiy turkistonliklarni nima uchun rus tilini o'rganishga diqqatini qaratmoqchi edi? Unga ko'ra, millat o'zini boshqa xalqlar tomonidan butunlay yo'q bo'lib ketmasligi uchun ular ham tijorat, ham sanoat, ham siyosatda boshqa taraqqiy etgan xalqlar bilan bir qatorda, yonma-yon harakat qilishi kerak. Turkistonliklar orasida hatto millat va Vatan manfaati uchun G'arb tillarida, jumladan rus tilida yuqori minbardan turib gapirishga qodir biror kishi topilmaydi. Bu qusurlarni yo'q qilish uchun esa rus tilini o'rganish, Rossiya universitetlarida tahsil olish hamda barcha qonunlardan xabardor bo'lmoq kerak. Behbudiy til o'rganish masalasini siyosiy masala sifatida ko'tarib chiqdi va Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo'l ochishi to'g'risida yozdi.

Behbudiy ayni masalani, ya'ni rus tilini o'rganish turkistonliklar uchun ne qadar muhim ekanligini Abdurauf Fitratning "Munozara" asariga yozgan taqrizida ham ko'targan edi. Mutaassib bo'lgan turkistonliklarga Behbudiy xorijiy tillarni o'rganishni payg'ambar ham buyurganlari haqida hadisi sharif ham keltiradiki, bu aholini "kofir bo'lmasligiga" eng asosiy dalil edi.

Behbudiyning adabiy til borasidagi qarashlari uning 1915-yili yozgan "Til masalasi" nomli maqolasida aks etgan. Ushbu maqola ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Behbudiy turkiy tilning shevalari xususida fikr yuritadi. Unga ko'ra, turkiy tilning Turkiston o'lkasida tarqalgan sheva va lahjalari yuz yillar davomida fors madaniyati va adabiyoti ta'siri ostida bo'lgani sabab ushbu tildan juda ko'plab so'zlarni o'zlashtirgani, tub turkiy so'zlar ushbu vaqt davomida iste'moldan

chiqib unutilib ketgan. Shuningdek, 14 asrdan beri muqaddas islom dini hamda Qur'on tili bo'lgan arabchadan ham turkiy til shevalariga son-sanoqsiz so'zlar kirib kelganki, ularni sheva yoki lahjalardan chiqarib tashlashning iloji yo'q. Chunki bunday so'zlarning muqobili mavjud emas.

Behbudiy turli mintaqalarda yashaydigan turkiy xalqlarning tili ham turkistonliklarning tilidan qolishmaydigan darajada fors va arab tili ta'siriga tushgani, hatto ayrimlari "forsiy va arabiyni u qadar ko'p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo'shulub "usmonli tili" ataldi". Behbudiy usmonli tili haqida gapirar ekan, ushbu tilda ravon yozmoq va o'qib tushunmoq uchun "uch tilning adabiyot va qoidalaridan boxabar" bo'lishi kerakligi, aks holda "usmonli shevasinda yozilgan asarlarning aksarini" nafaqat usmonli turklarning "kam-savodi", balki ayrim ziyolilari ham anglamas darajaga kelib qolganligini ta'kidlaydi.

Behbudiy Turkiston shevalari borasida yozar ekan, u o'zini yetuk tilshunos sifatida namoyon qiladi. Behbudiy turkistonliklarning yashash mintaqasiga qarab sheva va lahjalar qay darajada fors va arab tili ta'siriga tushgani va bu jarayon "barcha yerda bir holda bo'lmay, balki mavqe'i jug'rofiyasig'a qarab har nav" ekanligini tadqiq etdi. Va turkiy til qanchalar boshqa til ta'siriga tushib o'zgargan bo'lmasin, barcha "lahja ila so'ylayturgonlarning har biri boshqasini so'zig'a tushunadurlar", degan xulosa beradi. Bu esa Behbudiyning shevashunoslik borasida ham chuqur bilimga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Behbudiy Turkistonda yoyilgan kitob tili, ya'ni adabiy til borasida so'z yuritar ekan, "Turkiston, Buxoro va Xivada har kim o'z lahjasig'a muvofiq yozsa ham, bir-birig'a qarib (yaqin)" bo'lib, "ahli savod", ya'ni ziyolilarning "til birlig'i" — adabiy tili bir ekanligini ko'rsatib beradi.

“Til masalasi” maqolasining ikkinchi qismi turkiy xalqlar uchun yagona, soddalashtirilgan adabiy til yaratish masalasiga bag‘ishlangan. Behbudiyning ta’kidlashicha, u ushbu masalani yoritishda “betarafona” yondashishiga harakat qilgan. Behbudiylar sheva va lahja bilan “adabiy til” o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish uchun Volga-bo‘yi tatarlari, Kafkaz xalqlari bosib o‘tgan yo‘lni tahlil qilishdan boshlaydi. Unga ko‘ra, tatarlar va ozarbayjonlar nashr qilayotgan matbuot “tili” “ko‘cha tili” dan “necha daraja oliy” ekanligi har bir gazeta o‘qiydigan ziyoliga ma’lum. Hatto “Vaqt” gazetasi va “Sho‘ro” jurnalining tili ular nashr bo‘la boshlagan yildan, ya’ni 1908-yildan 1915-yilga qadar “jaridalarining avvalgilari ila hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini adabiyligi zohir” bo‘lib tobora “oliylashmoq” yo‘lida harakat qilmoqda edi. Albatta Behbudiyning tatar va ozarbayjon matbuoti tili borasida bunday xulosaga keli-

shu uning bu yo'nalishda ma'lum tadqiqotlar, izlanishlar, kuzatishlar hamda tahlillar qilganini ko'rsatadi. Va bu esa, o'z navbatida, Behbudiyning turkiy tildagi matbuotni doimiy tarzda kuzatib borish bilan bir qatorda ularning til siyosati qay darajada o'zgarib borayotganini tahlil qilib muayyan xulosa chiqara olgan yetuk tilshunos ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Yuqorida aytilgandek, Behbudiy bu kabi xulosaga kelish uchun sotsiologik so'rovnomalar o'tkazgan va qay matbuot tili turkistonlik oddiy odam uchun tushunarli ekanligini aniqlash bo'yicha qilgan izlanishlari natijasi "Til masalasi" maqolasining ikkinchi qismida o'z aksini topgan. Albatta, Behbudiyning bu kabi izlanish va tadqiqotlar olib borganini o'sha vaqtda o'ta muhim masalalardan biri bo'lgan (umum)adabiy til yaratish yoki qabul qilish borasidagi qarashlarini bildirish, o'z pozitsiyasini ko'rsatish bilan bog'liqlikda qarash kerak.

Behbudiy (umum)adabiy til masalasida tilni soddalashtirish, omma tushunadigan shaklga olib kelish fikrini qo'llab-quvvatlasada, tilni soflashtirish, ya'ni arabcha, forscha so'zlar o'rniga muqobillarini qidirib topish va tilga tatbiq etish masalasini "ijrosi mumkin emas, quruq xayoli fosidgina" deb baholaydi. Shu bilan bir qatorda, Behbudiy gazeta va jurnallarda boshqa tillardan yangi kirib kelayotgan so'zlar istalgan shaklda qo'llanilishi masalasiga to'xtalar ekan, buni "bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqq'on begona lug'atdagi ismlik nimarsalarg'a turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg'a xizmat etaturgon kishilarni bizg'a yo'qligi"dan deb ta'kidlaydi. Bu bilan Behbudiy tilga yangi o'zlashmalarni tartibga keltiradigan ilmiy jamiyat tashkil etish masalasini ham kun tartibiga chiqaradi.

Tilni soflashtirish masalasida "Sadoyi Turkiston" gazetasida berib borilayotgan maqolalarni tahlil qilar ekan, Behbudiy gazetaning bu harakatiga "ijrosi mumkin emas orzu" deb qaraydi. Sabab, asrlar davomida arab va fors tili ta'sirida qolgan turkiy tilni "yana bir necha ming sanada ularni(ng) ta'siridan chiqarmoq" ishiga berilsak, "ma'nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) bo'lgan tilimizg'a yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)" tilidan yangi so'zlar kirib kelaveradi. Behbudiy til soflashtirish masalasida mana shunday pozitsiyani egallagan edi.

Behbudiy tilni soddalashtirish borasida fikrlar ekan, arabiy ko'plikdagi so'zlarni imkon qadar turkiy ko'plik shaklda, masalan, "ulum, funun, ulamo, quzzot ...demoq yerinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar" kabi yozilishini hamda gazetalarda berilayotgan "kurrayi arzda yashamakda bo'lgan har millatni(ng) o'ziga maxsus

bir lisoni milliysi vordur” kabi gaplarni imkon qadar turkiychalashtirishni taklif qiladi. Lekin, yuqorida yozilganidek, Behbudiy butun tilni soflashtirish masalasida “butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarga muqobil turkchadan ism ta’yin qilmoq fikriga cho’mmoq o’zni charchatib va matbuotni zoe qilmoqdan boshqa nimarsa emas” degan fikrda qat’iy turdi.

Behbudiy sodda til “atrofindagi qavm-u qarindoshi ilan so’ylashmoq” uchun kerak bo’lsa, adabiy va ilmiy til “mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq” uchun zarur deb hisoblaydi. Uningcha, sodda til, ya’ni sheva yoki lahja mintaqaga ko’ra turli bo’lishi hisobga olinsa, bu tilni adabiy deb bo’lmaydi va uni istifodaga olib kirishdan ham hechqanday ma’ni yo’q. Bundan tashqari, Behbudiy Turkiston sheva va lahjalari adabiy til bo’lishga hozircha “qodir emas” deb hisoblaydi. Behbudiyning bunday xulosaga kelishi-

ga sabab "ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko'ydagi onalarni tilinda bo'lmoqligi" uchun boshqa taraqqiy etgan millatlar onalari kabi "qorindan qoring'acha" o'qimishli bo'lishi kerak. Shunday ekan, Behbudiy (umum) adabiy til masalasida "*modomiki, bizg'a ilm-u fan kerak va modom(iki), turk tilining ba'zi sho'ba va lahjalarig'a zamoniy, faniiy, diniy, tarixiy har nav' kitoblar bordur, ani o'qub fahmlamoqig'a g'ayrat etishimiz lozimdur*" degan xulosaga keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Behbudiy Turkistonning avom xalqi qay gazeta tilini yaxshi tushunishi va qabul qilishi borasida o'tkizgan sotsiologik so'rovnomasi va tadqiqotining asosiy sababi ham "Tarjumon" yoki "Ulfat" gazetasi tilini (umum)adabiy til darajasiga ko'tarish edi. Behbudiy o'zining bu qarashini quyidagicha izohlaydi: "*Dunyoimizni(ng) ilm-u fanidan xabardor bo'lmoq*

uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qrim lahjayi adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo'lushig'a vosita bo'lur".

Albatta, Behbudiyning adabiy til borasidagi bu kabi qarashi o'z davrida ham katta qarshiliklarga sabab bo'lgan. Uning eng yaqin safdoshlaridan bo'lgan Hoji Muin Behbudiyning adabiy til borasidagi fikrlariga qarshi chiqqan edi. Hoji Muni mahaliy tilni soflashtirish va begona (arabcha va forsha) so'zlardan tozalash orqali uni adabiy til sifatida shakllantirish tarafdori edi. Bundan tashqari, Hoji Muin Behbudiy taklif qilgan ikkitillik, ya'ni butun Turkistonda turkiy bilan bir qatorda forsiyni ham ishlatish fikrini ham ma'qullamaydi. Ingeborg Baldaufning ta'kidlashicha, Hoji Muin o'z qarashlarining amaliy tatbiqini Behbudiy safarga chiqqan vaqtda

“Oyina” jurnaliga vaqtincha muharrir bo‘lgan vaqtda amalga oshirishga qisman muvaffaq bo‘lgan. Baldaufga ko‘ra, Hoji Muin qisqa muddat ichida ikkitillik bo‘lgan “Oyina” jurnalini sof turkiy tildagi jurnalga aylantirishga ulgurgan.

Behbudiy “Til masalasi” maqolasining so‘ngida hech qaysi bir til faqatgina o‘z so‘z boyligi bilan taraqqiy eta olmasligi, boshqa tillardan yangi so‘zlar qabul qilish hisobiga rivojlana olishini ta’kidlash bilan bir qatorda, tilni soflashtirish bilan vaqtni bekor sarflamasdan uning o‘rniga “kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas” degan qat’iy fikrni o‘rtaga tashlaydi. Bundan tashqari, u Turkistonning turli mintaqalari shevalari orasida farq bo‘lgani uchun ushbu shevalarda adabiy asarlar yozish ham maqsadga muvofiq emasligini ta’kidlaydi. Behbudiy (umum)adabiy til yaratish borasidagi asosiy muammo va

to'siq sifatida millat onalarning savodsizligini ko'radi. Adabiy til yaratmoq uchun, Behbudiya ko'ra, birinchi navbatda, "biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak". Adabiy tilning hamda ilm-fanning rivoji millat onalarining bilimiga bog'liq ekanligini ta'kidlagan Behbudiya, birinchidan, qiz bolalarni maktablarga ko'proq berish, ularni savodli qilish masalasini ko'targan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, bir adabiy til yaratish uchun imkon qadar arabcha va forscha so'zlardan kam ishlatish, sodda, boshqa turkiy tillardan keng istifoda qilgan holda yozishni taklif qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyaning tilshunoslik borasida e'lon qilgan maqolalari orasida "sart" so'zi bilan bog'liq fikrlari ham bugungi tilshunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolalarning tahlili Behbudiya o'z zamondoshlari safidan birinchilardan bo'lib so'z etimologiyasi bilan shug'ullangan,

so'zning qo'llanilish doirasi, turli xalqlarda bir so'zning qay ma'noda ishlatilishi, so'zning tarixiy, adabiy manbalarda uchrash-uchramasligi borasida izlanishlar olib borgan, zamonaviy til bilan aytadigan bo'lsak, madaniy antropologiya fani bilan ham shug'ullanganligi ko'zga tashlanadi.

"Sho'ro" jurnalida e'lon qilingan "Sart so'zi majhuldir" maqolasida Behbudiy ruslar tarafidan mahalliy o'troq xalqqa nisbatan qo'llay boshlagan "sart" so'zining ishlatilishi, turli lug'atlarda mavjud yoki mavjud emasligi, yon-atrofdagi ko'chmanchi xalqlar bu so'zning nima ma'noda qo'llashi va hokazo dalilardan 24 tasini keltiradi va so'ngida "sart" so'zi Turkistonning mahalliy o'troq xalqiga nisbatan ishlatilishi noo'rin ekanligini isbotlab bergan. Behbudiy ushbu maqolada "sart" so'zi bilan bog'liq keltirgan dalillarini tahlil qilinsa, muallif tarixiy kitoblardagi faktlardan tortib tur-

li lugʻatlarda, koʻchmanchi xalqlar nutqidagi maʼnosigacha izohlashga harakat qilgan. Bu esa, oʻz navbatida, “sart” soʻzining etimologiyasiga oid katta izlanish olib borilganligi va Behbudiyning bu boradagi iqtidorini koʻrsatadi.

Behbudiy barcha dalillarni bir-bir keltirgandan keyin maqola soʻngida “sart” soʻzining tarixi ham “majhul” boʻlganini hamda turkistonlik oʻtroq aholiga nisbatan “sart” atamasini koʻchmanchi qozoqlar tarafidan ishlatilgani bois ulardan soʻralsa, balki biror tayinli javob chiqishi haqida ruslarga tavsiya beradi.

“Sart” soʻzi bilan bogʻliq “Oyina” da berilgan maqolalarning birinchisi “Shoʻro” jurnalida eʼlon qilingan maqola nomi bilan bir xil “Sart soʻzi majhuldir” nomlangan boʻlsa, ikkinchisi, “Sart soʻzi maʼlum boʻlmadi” sarlavhasi bilan eʼlon qilingan. Behbudiy bu maqolalarda “Shoʻro” jurnalida oʻzi hamda boshqa mu-

alliflar tomonidan bu borada e'lon qilingan maqolalarni tahlil qiladi. Behbudiy barcha mualliflarning fikrlarini jamlagan holda "sart" atamasini Turkiston o'troq aholisiga nisbatan qo'llash "haqorat" sifatida ekanligini yozadi.

Behbudiy o'z fikrlarini dalillash sifatida bir vaqtlar "xun"lar bo'lgani, ular butun Yevropani zabt etgani va o'sha yerda qolib, hozirda nomi yo'q bo'lib ketgani bilan yevropaliklarni sizlar "xun" sizlar deb atash qanchalar o'rinli bo'lishi borasida fikrlarni keltiradi. Behbudiy fikrlarini xulosalar ekan, Yevropa xalqlari o'zlariga nisbatan "xun" atamasini haqorat deb qabul qilganidek, ayrim tarix kitoblarida Turkiston hududida qachonlardir "sart" atalgan bir qabila bo'lganligi yozilgani bilan yerli aholini bugungi kunda sen "sart" san deb atash ham haqorat, millatni yerga urish bilan barobar ekanligini ta'kidlaydi.

Behbudiyning Turkiston jadidchiligida tut-

gan o'zni, uning bu harakat g'oya va fikrlarining yoyilishida, ijtimoiy-siyosiy sohaning turli jabhalarida islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyatini baholashda, tabiiyki, u yozib qoldirgan fikrlar, asarlar katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda uning (umum)adabiy til, til normalari, imlosi, so'zlar etimologiyasi borasidagi fikrlari, qarashlari ma'lum ma'noda Behbudiyning tilshunoslik sohasidagi faoliyatiga ham muayyan baho berishga, uning bu yo'nalishdagi harakatlariga xolisona xulosa berishga imkon tug'diradi.

Behbudiyning Turkistonda keng tarqalgan turkiy tilning sheva va lahjalarini mukammal bilishi, zamonasining nisbatan taraqqiy etgan turkiy shevalarda nashr etilgan vaqtli matbuot tilini davrlashtirish, ularga muayyan baho bera olish, tahlil qila olish kabi qirralari uning turkistonlik ziyolilar orasidan yetishib chiqqan ilk tilshunos deb atashimizga dalil bo'la ola-

di. Shuningdek, so'zlarning tarixi, ularning kelib chiqishiga oid izlanishlarini inobatga olib, Behbudiyning hozirgi zamon atamasi bilan madaniy antropologiya sohasida ham muayyan yutuqlarga erishgan, bu sohada ham birinchilardan bo'lib izlanishlar olib borgan olim deb xulosa berishga asos beradi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, Behbudiy o'zbek tilining adabiy til sifatida shakllanishi borasida samarali faoliyat olib borgan tilshunos, sotsiolog, shevashunos, etnograf, madaniy antropolog sifatida gavdalanadi.

Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Uning barcha yozganlari hisoblab chiqilmagan, hatto aniqlanmaganlari qancha. Mualliflar

o'zlarining ism-shariflarini o'z gazeta-jurnal-larida ko'pda qo'yavermaganlar. Har qanday holda ham Behbudiy g'oyat sermahsul qalam-kash edi.

Ma'rifatdan siyosatga. Behbudiy 1905-yili Rossiya imperatori tarafidan e'lon qilingan manifest natijasida ta'lim sohasidagi faoliya-tini kengaytiradi va siyosiy yo'nalishda ham birinchi qadamlarini boshlaydi. Behbudiyning siyosatga doir nazariy qarashlari uning "Kitobi muntaxabi jug'rofiyayi umumiy va namunayi jug'rofiya" darsligida, "Duma va Turkis-ton musulmonlari", "Xayrul umuri avsatuho", "Muhtaram Samarqandiylarg'a xolisona arz" va shu kabi maqolalarida o'z ifodasini top-gan. Xususan, "Kitobi muntaxabi jug'rofiyayi umumiy va namunayi jug'rofiya" darsligida Behbudiy dunyoda mavjud bo'lgan davlat boshqaruvi usullari haqida mufassal ma'lumot beradi.

Behbudiy XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobiga aylangani uning sotsializmga bo'lgan munosabatida yaqqol ko'rinadi. Behbudiy o'sha yillari sotsialistik ta'limotni keskin rad etgan Butunrossiya musulmonlarining partiyasi "Ittifoqul muslimin" va ushbu partiya birgalikda faoliyat olib borishga kelishgan kadetlar partiyasi qarashlarini ma'qul ko'rgan. Behbudiyga ko'ra, sotsialistik mafkura nafaqat foydasiz, balki juda zararli. Sotsialistlarning oila, shaxs va ijtimoiy tenglik borasidagi fikrlari musulmonlar uchun shariat yuzasidan umuman to'g'ri kelmaydi. Bu jihatdan uning 1906-yil 10-oktabrda "Xurshid" gazetasida (6-son) bosilgan "Xayrul umuri avsatuho" (Ishlarning yaxshisi o'rtachasidur) maqolasi xarakterli. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtayi nazaridan baholanib, Behbudiyi qoralash uchun nishon bo'lib keldi. Uning bu xususdagi fikrlari ustози Ismoil-

bek Gasprinskiyning “Mazhabi ishtirokiyun” ni qattiq tanqid qilgan “Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana” risolasi va “Dorur rohat musulmonlari” romanidagi mulohazalarga tayanar edi. Behbudiy ham o‘z ustozlari kabi sotsializmni zo‘ravonlik hisobladi, ijtimoiy tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini ko‘rdi. Xuddi shu e‘tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakhladi.

- I Davlat dumasidan so‘ng Turkistondan deputat saylanishi taqiqlandi. Bu taqiq dumada Turkistonga oid masalalarning muhokamasini deyarli chetga chiqarib qo‘ydi. Turkistonliklar siyosiy masalalar muhokamasidan ajratilib qo‘yildi. Dumadagi musulmon fraksiyasi turkistonliklarning asl holatlarini va istaklarini bilish uchun viloyatga o‘z vakillarini yuborishga qaror qildi. 1910-yili Sadri Maqsudiy ana shu

masala yuzasidan Turkistonga safar qildi. Lekin mahalliy rus ma'muriyatlari aholini u bilan uchrashib, majlis o'tkazish va o'z muammolarini muhokama qilishga ruxsat bermadi. Shu sabab Maqsudiy o'z safari davomida faqatgina rasmiy ma'muriyat vakillari bilan uchrashib, vaqf, maktab, yer, soliq, qozilik ishlari hamda musulmonlarning rasmiy ta'til kunlariga oid masalalarni muhokama qilish bilan cheklandi. Behbudiyning ma'lumotiga ko'ra, aholi deputat bilan bir majlis o'tkazish uchun Samarqand shahar polismeystriga murojaat qilgan, lekin ruxsat berilmagan. Shu sababdan, Behbudiyga ko'ra, "shaharning qo'rqoq boylari" S.Maqsudiy bilan ko'rishish va suhbat qilishga jur'at qila olmaganlar. Turkistonliklarning bu kamchiliklari tufayli yuqorida aytilgan masalalar o'z yechimini topmadi. Behbudiy 1917-yili ham ayni "mahkamayi islomiya" masalasini yana kun tartibiga qo'ygani bunga dalil bo'ladi.

Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullari haqida fikr yuritib, ularni uchga bo'ldi:

1. Idorayi mustaqilla (idorayi mutlaqa — monarxiya).
2. Idorayi mashruta (konstitutsion parlament hokimiyati).
3. Idorayi jumhuriyat (respublika).

Lekin millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosa edi. Uning «Vaqt» gazetasida chop etilgan maqolalaridan birida shunday mulohazalarni uchratamiz:

“Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noahil mudarris saylanur. Bir volostda 40 nafar elboshlaridan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur va Rusiya ma'murlarinda ma'qul o'lur. Bir ming faqirning radd-u mudoxalasi mo'tabar o'lmaz va so'zlari eshitilmas. Ishta bizim Turkiston shaharlarining bu

kungi qozi, mufti va mudarris ham imom va o'zga ruhoniylarining yuzdan saksoni, sahro va qaryalarda o'lanlarining o'ndan to'qqizi sho'yla nomunosib kishilardan iboratdir". Shu gazetaning o'sha yili 4-noyabrda bosilgan "Duma va Turkiston musulmonlari" maqolasida esa chor mustamlakachilik siyosati, xususan, o'lkadan yetmish ming rusdan olti deputat bo'lgani holda yetti million musulmonga besh o'rin ajratilgani oshkora tanqid qilinadi. Shularga qaramasdan, Behbudiy, istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo'ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo'ravonlik g'ayriaxloqiy, binobarin, g'ayriinsoniydir. Umuman olganda esa, mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqlolga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uchyo'ldan bordilar:

1. Rusiyaga tobelikdan zo'rluk yo'li bilan qutulish, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi eshon qo'zg'oloni, 1916-yil voqealari, "bosmachilik").

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalalarida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (Ismoilbek Gasprinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy).

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa Sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo'ldi.

Behbudoy va Gasprinskiy. Mahmudxo'ja Behbudiy turkistonlik jadidlar orasida Gasprinskiy bilan mustahkam aloqa o'rnatgan va "Tarjumon"da faol ishtirok etganligi bilan ajralib turadi. Bulardan 26 tasi turli mazmundagi xabar, 4 maktub, 2 maqola,

1 telegramma, 1 Behbudiy maqolasiga taqriz va munosabat.

Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili Turkistonda mahalliy tilda chiqqan rasmiy "Turkiston viloyatining gazetisi"dan boshlandi. Gasprinskiy 1904-yildagi Rossiya-Yaponiya urushi munosabati bilan "Tarjumon"da musulmonlarni bu urushda ishtirok etayotgan rus va musulmon askarlariga yordam tariqasida pul, kiyim va oziq-ovqat yig'ib yuborishga da'vat qilib bir necha maqola yozdi. Behbudiy ham ayni shu mavzuda "Turkiston viloyatining gazetisi"da kichik bir maqola e'lon qildi. Unda Behbudiy turkistonliklarga musulmonlar nima sababdan rus askarlariga va davlatiga yordam berishlari kerakligini tushuntiradi. Muallif o'z so'zlari-ning dalili sifatida "gazetlarda yozilib" turgan "Qrim tarafidagi ba'zi shaharliklar" pul va kiyim yig'ib yuborganliklari voqeasini misol kel-

tiradi. Behbudiy “gazetalar” deganida aynan “Tarjumon” ni nazarda tutadi va unda berilgan xabarlardagi ma’lumotlardan foydalanadi.

Behbudiyning “Tarjumon”dagi ishtiroki 1904-yilning so‘nggida ko‘rinadi. Gasprinskiy bilan Behbudiy orasidagi amaliy hamkorlik aynan shu davrdan boshlanadi deyish mumkin. “Tarjumon” idorasi Rossiya musulmonlari manfaatlari uchun mo‘ljallangan turli tadbirlarga o‘z o‘quvchilarini pul xayriya qilishga doim targ‘ibot ishlarini olib borgan. Behbudiy “Tarjumon” idorasining shunday murojaatlaridan biriga javob tariqasida Peterburgda Buxoro amiri Abdulahadxon tashabbusi bilan qurilayotgan masjid hamda Samara viloyatida tashkil etilgan qizlar maktabiga xayriya tarzida pul yuboradi. Va “Tarjumon” idorasiga yig‘ilayotgan pullarni qay tartibda kerakli joylarga yuborishi haqida savol bilan murojaat qiladi. Gasprinskiy Beh-

budiyga tashakkur bildiradi va savoliga batafsil javob beradi.

Eng qiziqarlisi, "Tarjumon" gazetasi va uning noshiri Gasprinskiy uning uchun "xojayi ruhoniyy" vazifasini o'tagan va barcha ishlarida unga o'rnak bo'lgan.

Behbudiy 1905-yili Rossiya imperatori tarafidan e'lon qilingan manifestdan ilhom olgan holda siyosat olamiga qadam bosdi. Ayni shu vaqtda Gasprinskiy musulmonlar yashaydigan mintaqalar uchun diniy muxtoriyat berilishi va musulmonlar o'z diniy, o'quv ishlarini diniy muxtoriyat asosida tashkil etiladigan "Mahkamayi shar'iy"lar vositasida boshqarishini nazarda tutuvchi dastur ishlab chiqdi va uni keng targ'ib qila boshladi.

Behbudiy Gasprinskiy faoliyatiga juda yuqori baho beradi. Unga "ustod", "hazrat", "muxlisingiz" kabi so'zlar bilan murojaat qiladi. O'z navbatida, Gasprinskiy ham Behbudiy-

ni “fazilatlu muftiy”, “ulamoyi munavvaradan”, “ulamoyi asriyundan samarqandli muftiy” kabi epitelar bilan ta’riflaydi. Behbudiy Gasprinskiy bilan bir necha marotaba ko’rishdi. Ularning birinchi uchrashuvlari qachon va qayerda bo’lganiga dalillar yo’q. Shunday bo’lsa-da, ularning ilk uchrashuvi 1906-yil 15-avgustda Nijniy Novgorodda o’tgan Butunrossiya musulmonlarining III syezdida bo’lgan, deb taxmin qilish mumkin. Ayrim tadqiqotlarda ularning birinchi uchrashuvi Behbudiyning 1904-yildagi Rossiya bo’ylab qilgan sayohati davomida bo’lganligi ham ta’kidlanadi. Lekin bu faktni tasdiqlovchi dalillar yo’q. Behbudiy syezdda ishtirok etish uchun Orenburg, Moskva, Peterburg va Qozon shaharlari orqali Nijniy Novgorodga boradi. Syezdda qatnashgan turkistonliklar delegatsiyasi syezd prezidiumi a’zolariga ziyofat berdi va ziyofat davomida Turkistonga oid turli masalalar muhokama

qilindi. Gasprinskiy ziyofat davomida muhokama qilingan masalalardan bittasini alohida ko'rsatib o'tadi va: "Turkiston viloyatida vaqf, maktab va madrasa ishlari islohga muhtojligi hamda diniy ishlar viloyat boshqarma (oblastnoy pravleniya)lar tasarrufidan hamda inspektorlarning aralashuvidan xoli qilinib, bu ishlarni boshqarish uchun "mahkamayi islomiya" ta'sisi zarur"ligi birinchi darajali vazifalardan ekanligi majlis ishtirokchilari tarafidan ma'qullanganligini aytadi. Bu, yuqorida aytib o'tilganidek, Gasprinskiy ilgari surgan avtonom tuzilmaning bir qismi edi. Gasprinskiyning rejasiga ko'ra Rossiya musulmonlari uchun bunday "mahkamayi shar'iyalar" to'rt yerda tashkil qilinishi va ularni birlashtiruvchi umumiy idorasi bo'lishi kerak edi.

Gasprinskiy musulmonlarning siyosiy haqlari o'z qo'llariga berilgan taqdirda ham rus tili, rus qonunlari va, eng asosiysi, zamonaviy

bilimlarni yaxshi bilmaslik bu imkoniyatni yo‘q qilishi va “bir rus to‘rasi 40 mullani qo‘y kabi” orqasidan olib yurishda davom etishini uqtirishga, mahalliy musulmonlar ko‘zini ochishga harakat qiladi.

Behbudiy e‘lon qilgan maqolalarining ak-sariyati Gasprinskiy bir umr ta‘kidlagan ilm, kasb, til o‘rganish va ma‘rifatli bo‘lishga chaqiriqlar to‘g‘risida edi. Bunga juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Uning “Sayohat xotiralari” dan tortib “Oyina”, “Samarqand” va boshqa nashrlardagi maqolalarining ko‘pchiligi ma‘rifat targ‘ibiga bag‘ishlangan edi. Behbudiy ham Gasprinskiy kabi bu yo‘lda osonlikdan qiyinlikka qarab yurdi. Gasprinskiy gazeta nima ekanligi yoki musulmonchilikda rasm kabi masalalarni tushuntirar ekan, Behbudiy ham xuddi shu yo‘l bilan o‘z o‘quvchilarini gazeta bilan bir qatorda ayrim ilmiy istilohlar, geografiya, yer va boshqa turli mavzularni tu-

shuntirishga urindi. Ayniqsa, Behbudiy bilan Gasprinskiydagi bu kabi fikriy uyg'unliklar adabiy tanqid hamda teatr masalalarida juda yaqqol ko'rinadi. Gasprinskiyga ko'ra, "bir adabiy asarning va ba'zan bir inson ishining mohiyatini ochadigan mulohaza va mutolaaga "tanqid" deb qaralsa, Behbudiy esa "sarroflar pulni, tujjorlar matohni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatga taalluqli narsalarni saralaydilarki, boshqa so'z bilan "tanqid" ataladi" deb ta'rif beradi. Ularning bu masaladagi fikrlari davomida ham ayni uyg'unlikni kuzatish mumkin. Gasprinskiy teatrning mohiyatini tushuntirar ekan, "teatr bu bir sayr va tamoshaxonadirki, bor va bo'lgan narsalarni ham, bo'lmagan hollarni ham bayon qiladi" deydi. Yana bir joyda esa "teatr hunari buyuk hunardir. Teatrxaona — ibrat maydoni, balog'at va fashohat maktabi" ekanligini yozadi. Behbudiy, o'z navbatida, "teatr va'z va tan-

turkistonliklarning viloyatda respublika tipidagi boshqaruv usuli haqidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamagan. Ushbudan "ustod" va "shogird"ning siyosiy masalada hamfikrligi yana bir bor ko'rinadi. Gasprinskiy siyosiy masalalarda o'ta ehtiyotkor bo'lib, hech qachon shoshmaslik va har bir ishning vaqti kelgunga qadar zamin hozirlash kabilar bilan chegaralandi.

Ular yana bir bor va oxirgi marta 1914-yil yoz oylarida Istanbulda ko'rishdilar. Uchrashuv Behbudiyning Sharq mamlakatlari bo'ylab qilgan ikkinchi sayohati boshlarida, Behbudiyga ko'ra, tasodifan bo'lgan. Balki, tasodifiy ham bo'lmagandir. U vaqt "Tarjumon"ning muharriri bo'lgan Gasprinskiyning o'g'li Rif'at Gasprinskiy Behbudiy bilan Qrimda ko'rishadi va Odessa shahrida uni Istanbulga kuzatib qo'yadi. U otasi haqida Behbudiyga ma'lumot bergani aniq. Gasprinskiyning

beh qiladigan hamda zararlik odat, urfnung yomon va zararini aynan ko'rsatadi. Hech kimni ayamaydi" kabi fikrlar bilan uni tushuntiradi. Behbudiyga ko'ra, teatr — taraqqiyotning birinchi sabablaridan biri.

Behbudiy Gasprinskiy bilan keyingi yillarda ham bir necha marotaba ko'rishdi. Gasprinskiy 1908-yili Turkistonga safar qilar ekan, Samarqandga kelganida to'g'ri Behbudiy tashkil etgan maktabga bordi. Maktabning bosh muallimi Abdulqodir Shakuriy hamda maktab faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Behbudiyning uyida mehmon bo'ldi.

Ularning yana bir uchrashuvlari 1912-yil Istanbulda bo'ldi. Ushbu uchrashuvning mavzusi Turkistonning siyosiy jihatdan tuzilmasi va boshqaruv usuli haqida bo'lganligi Chor oxrankasi bildiruv qog'ozlaridan ko'rinadi. Ma'lum bo'lishicha, Gasprinskiy ham, Behbudiy ham uchrashuvga kelgan boshqa

Behbudiy bu uchrashuvda “ustod hazratlari bilan yetti soat tanho suhbat” qilganligidan juda mamnun ekanligini yozgan edi. Behbudiy orada bo‘lib o‘tgan suhbat mazmunini keng yoritmaydi. Umumiy tartibda Turkistonning ahvoli, maktab, gazetachilik, dunyo musulmonlari haqida kechganligini aytib o‘tadi.

Albatta, suhbat mavzusi o‘sha vaqtda Davlat dumasida musulmonlarga oid muhim masalalar muhokamasi yuzasidan bo‘lgani aniq. Bu masalalar musulmonlar uchun o‘ta muhim bo‘lganligidan Butunrossiya musulmonlarining IV syezdini o‘tkazish, ish va keyingi qilindigan harakatlar yuzasidan bir yechimga kelish muhim edi. Bu yig‘inning tashkiliy ishlari 1914-yilning boshlaridan boshlangan edi. Gasprinskiy ham ana shu yig‘in tashkilotchilaridan biri sifatida bir necha bor Musulmon

fraksiyasi a'zolari bilan ko'rishgan va syezdda ishtirok etishi lozim edi. Bunday taklif Turkiston vakili sifatida qatnashish uchun Behbudiyga ham kelgan edi. Behbudiy safarga chiqishi sababli unga kelgan savolnomaga batafsil javob yozib Duma Musulmon fraksiyasiga yuborish bilan cheklandi. Ularning ikkisi ham suhbat davomida Butunrossiya musulmonlarining IV syezdi ishida ishtirok eta olmaganlaridan juda afsuslanadi.

Umuman olganda, Behbudiy nazarida Gasprinskiy "millatni uyg'otish, dunyodan, siyosat olamidan, madaniy millatlar holidan xabardor qilish uchun... 35 yil mehnat qilgan. ...har yerda musulmonlarni zamonaviy madaniyat, ilm-fan, sanoat, tijorat ishlariga va rus madaniyatiga targ'ib qilgan" shaxsdir. Behbudiy nafaqat o'zini, balki "Rossiyada-

gi minglab yangi usul maktablari muallim va o'quvchilari, sobiqan nashr bo'lgan va hozirda nashr bo'layotgan musulmon gazeta va jurnallari muharrir va mudirlari"ni ham uning bevosita shogirdlari sifatida ko'rdi. Gasprinskiyni "ustoz muazzam", ya'ni buyuk ustoz deb bildi.

Hozirgi davrda Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Fitrat, Ibrat kabi jadidlarning millat kelajagi, mamlakat taraqqiyoti va, eng muhimi, uning mustaqilligi, erki uchun qilgan mehnat va xizmatlarini aholining keng qatlami, xususan, navqiron yosh avlodga boricha yetkazib berish yangidan kun tartibiga chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori va Avloniy istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan qilgan "fidokorligi", shu bilan bir qatorda, ularning "milliy ta'lim va tarbiya tizimini" yaratishdagi "his-

sasi” uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. Ularga hukumat tomonidan ko'rsatilgan bunday yuksak e'tiborni oldimizda qilinadigan ishlarning debochasi deb qabul qilishimiz kerak...



HIKMATLI SO‘ZLARI



Har zamoni(ng) ilmi, hikmati va parvarishi boshqadur. Modomiki, har bola, ya'ni har kimni(ng) zamoni, otasi zamonindan boshqa bo'lsa va har otag'a o'z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamong'a muvofiq suvratda tarbiya va ta'lim etmog'i lozim bo'lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bu kungi zamon va soatimizdagi ilm va fanlarni bolalarimizg'a o'rgatmaymiz.

* * *

Ey muhtaram yoshlar! Aziz birodarlar, o'g'ul to'ylarig'a sarf qilaturgon aqchalaringizni mana shul ilm zamoni yo'lig'a sarf etingiz, sizdan o'g'lungizg'a mol meros qolmasun, balki, albatta, ilm va tarbiya meros qolsun.

* * *

Yoshlardan himmat va g'ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerak.



* * *

Makotib — taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning durdonasidur.

* * *

Ey g‘ayratlik yoshlar! Nifoq va bir-birig‘a dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to‘yg‘izolmayturgon yetim va bevalar haqqi, bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, xoliq Xudoning nafig‘a, din va millat yo‘lig‘a xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan xizmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g‘urur emas.

* * *

Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidur, qarilar zamoni o‘tgan. Siz kiromg‘a bobasirat bo‘lub, o‘n daf‘a o‘lchab, bir daf‘a kesingiz.

* * *

Aziz hamshaharlarim, mo‘tabar ahli vatanim,

hammangiz bir bo'lub, xalq va dinning rivojiga uchun birlashub, oradagi nafratlarni tashlab, Xudoning bergan hurriyat ne'matidan naf'lanmoq harakatida bo'lmoq kerak.

* * *

Fanning ibtidoiy ta'limini ko'rmagan kishiga o'rta va oliy qismini madrasalarga kirgizub ta'lim bermakdin foyda chiqmaydur.

* * *

Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardur, agarda o'shal maktab va madrasa muallim va mudarrisleri olim bo'lsa va shogirdlariga ko'ngli ilan ta'lim bersa, albatta, ilm hosil qilur. Agarda muallimni o'zi hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhavsalla yoinki kamilm bo'lsa, yoinki ilmi bo'lub turub, usuli tahsildan xabarsiz bo'lsa, ani(ng) shogirdlari nodon qolur.

* * *

Zamoncha ilmi diniy va zamoniy kerak.



* * *

Yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarining ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizom va akmalig'a ko'b ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda kamol suvratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va millatni muqaddam tutarlar. Va, luzumi kelganda, bu yo'lda mol va jonlarini fido qilmoqg'a hozir turarlar.

* * *

Ilmsizlik va tarbiyayi diniya va axloqi milliyadin bebahralikni(ng) oxiri dinsizlik va rasman tarki din etmoqqa majbur bo'lur.

* * *

Ilm mushtarakdur. Bilgannikidur.

* * *

Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: be-

vatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zalolat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir.

* * *

Har millat va din ahlining boshchi va hodiysi ulamodurlar.

* * *

Bir dasta tayoqni birga bog'lasangiz, kimsa sindirolmas. Agarda ajratsangiz, bir-birin har kim sindirar.

* * *

Har bir millat, eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etub, ko'paytirmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdan foydalanmas.

* * *

Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo'q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo'q.

E'TIROF

Mahmudxo'ja birodarim millati islomiya-ning taoliy va taraqqiysi uchun eng birinchi daraja cholishaturg'on bir zoti humoyunsifat erdi.

Vasliy Samarqandiy

* * *

Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q deb o'ylayman.

Fayzulla Xo'jayev

* * *

Agar O'zbekistonda Navoiy va Ulug'bekdan boshqa uchinchi bir kishiga haykal qo'yiladurg'on bo'lsa, shubhasiz, bu Behbudiyning haykali bo'lg'usidur...

O'zbekning milliy adabiyoti ham Behbudiy ila boshlanib, yangi bir yo'lga kiradir.

Behbudiy Turkistonni eng avval chor hukumati qo'ldan qutqarmoq fikrini elga talqin qilg'uvchilardan, aholining ezilganligini birinchi daf'a sezganlardan ham bu haqda nurli usta yo'llar ila xalqni istiqbol kurashiga chaqirib yozg'uvchilardandir.

Laziz Azizzoda

* * *

Behbudiy afandi — qo'lig'a qalam olib, Turkistonning yangilik va yuksalishig'a hormay-tolmay, talashib-tortishib xizmat qilg'on birdan-bir muharrir va yo'l boshchi.

Hoji Muin

* * *

Behbudiy hazratlari ko'rinishda g'oyat mahobatlik va salobatlik edi. Ahvolig'a voqif bo'lmag'on kimsa mutakabbir deb gumon qilur edi. Lekin haqiqatda muloyim suhbat-

lik, takallufsiz bir odam edi. O'z moli haqida bo'lsin, xalq moli bo'lsin, iqtisodg'a ko'p rioya qilar va ijtimoiy ahvolimizning tuzalishi uchun iqtisodg'a rioya qilishni birinchi shartlardan bilar edi. Shuning uchun to'y va azalarg'a bo'laturg'on isroflarni o'zi butun tark qilg'on va so'zig'a quloq solaturg'onlarni ham tark qildirg'on edi.

Sadriddin Ayniy

* * *

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston degan o'lkaning boshlig'i edi... Mahmudxo'ja Turkistonning yangilik davri tarixida yorug' bir chirog' edi. Mahmudxo'janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o'run olishga munosib bir otdir.

Vadud Mahmud

* * *

Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Yangi adabiyotning markazi — Samarqand... Yosh qalamkashlarning boshilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

A.N.Samoylovich

* * *

O‘zbek teatrining asosini qo‘yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Boris Pyaskovskiy

* * *

Mahmudxo‘ja Behbudiyni O‘rta Osiyodagi barcha jadidlarni birlashtirishga intilgan yirik namoyanda desak, xato qilmaymiz. U butun chor Rossiyasidagi hur fikrli, ma‘rifatparvar musulmonlar bilan muntazam aloqada bo‘lib turar, ayniqsa, Ismoilbey Gaspralining

ashaddiy muxlisi edi. Behbudiy qalbini o'rtagan eng katta dard — erk va ma'rifat.

Ingeborg Baldauf,
nemis olimasi

* * *

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.

Begali Qosimov

* * *

Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma'nodagi asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiydir.

Ulug'bek Dolimov

* * *

Behbudiy haqiqat axtarmadi, odamlarni mavhum haqiqatni topish uchun undamadi. U bor Haq va haqiqatni xalqqa matbuot, adabiyot va san'at orqali ko'rsatdi.

Sirojiddin Ahmedov

* * *

Behbudiyning hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining eng ko'zga ko'ringan siymosi bo'lganligi bilan alohida ahamiyatga ega. U davrining yirik shaxsi bo'lib, dunyoni o'zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan

farqli ravishda anglay olgan hamda u vaqtda ularning tasavvuriga sig'maydigan aloqa va tashkiliy shakllardan foydalana olgan.

Adib Xolid,
amerikalik olim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. — Toshkent: Akademiya, 1999.
2. Baldauf, Ingeborg. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
3. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. — Toshkent: Universitet, 1999.
4. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. — Toshkent: Sharq, 2005.
5. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. — Toshkent, 2010.
6. Qosimov B. Maslakdoshlar. — Toshkent: Sharq, 1994.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
8. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. — Toshkent: O'qituvchi, 1990.
9. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. // Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi B.Qosimov. 3-nashri. — Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
10. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2 jildli / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi S.Ahmedov. — Toshkent: Akademnashr, 2018.

11. Rizayev Sh. Jadid dramasi. — Toshkent: Sharq, 1997.

12. Edvort Olvort. Birinchi o'zbek dramasi. Ingliz tili-dan Zulxumor Mirzayeva tarjimasi // Jahon adabiyoti, 2009-yil, 9-son.

MUNDARIJA

Jadidlar izidan (<i>so'zboshi o'mida</i>).....	4
Hayot yo'li.....	6
Faoliyati.....	29
Hikmatli so'zlari.....	139
E'tirof.....	145
Foydalanilgan adabiyotlar.....	153

Ilmiy-ommabop nashr

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

Muharrir Saidmurod Xolbekov
Badiiy muharrir Muhammadxon Yusupov
Texnik muharrir Dilmurod Jalilov
Sahifalovchi Axtam Ro'zimurotov
Musahhih Nigora G'aniyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.

2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$. AcademyUz garniturasini.
Ofset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.
Adadi 23000 nusxa. 03-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYL.
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

“HILOL NASHR” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



TEYOTR NIMADUR?
JAVOBIG'A TEYOTR IBRATNOMADUR,
TEYOTR VA'ZXONADUR,
TEYOTR TA'ZIR ADABIDIR.
TEYOTR OYINADURKI, UMUMIY HOLLARNI
ANDA MUJASSAM VA NAMOYON SURATDA
KO'ZLIKLAR KO'RUB KAR-QULOQSIZLAR
ESHITIB, ASARLANUR...

MAHMUDXO'JA
Behbadiy

ISBN: 978-9943-6682-2-5



9 789943 668225